

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI  
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT

O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

**O'ZBEK TILI VA ADABIYOTINI O'QITISH FAKULTETI**

“Himoyaga ruxsat etilsin”  
fakultet dekani

f.f.d., B. Abdushukurov  
“ ” 2018-yil

5111200 – O'zbek tili va adabiyotini o'qitish bakalavr yo'nalishi 4-kurs 404-guruh talabasi Abdug'afurova Nigora Toirovnaning “O'qituvchi nutqiga qo'yiladigan talablar” mavzusida yozilgan

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Ilmiy rahbar:**

G.Ergasheva

“O'zbek tilini o'qitish metodikasi”  
kafedrasi o'qituvchisi

N. Egamberdiyeva

Pedagogika va psixologiya kafedrasi p.f.d.prof

**Taqrizchilar:**

D.Azimova

“O'zbek tilini o'qitish metodikasi” kafedrasi f.f.n

S.Normatova

Yakkasaroy tumani 73- umumiy o'rta ta'lif  
maktab ona tili va adabiyoti o'qituvchisi

**“Himoyaga tavsiya etilsin”**

**I. Azimova**

“O'zbek tilini o'qitish metodikasi” kafedrasi  
mudiri, f.f.n

**TOSHKENT – 2018**

## MUNDARIJA

<b>Kirish.....</b>	<b>3</b>
<b>I bob. O‘qituvchi nutqi masalasining o‘rganilishi</b>	
1.1. Nutq madaniyatining shakllanishi va rivojlanish konsepsiysi	
1.2. O‘qituvchining kommunikativ kompitensiyasi darajasi.....	
<b>II bob. O‘qituvchi nutqiga qo‘yiladigan talablar.....</b>	
2.1. Pedagogik faoliyatda o‘qituvchi nutq mahoratining tutgan o‘rni va ahamiyati	
2.2. Zamonaviy ta’lim jarayonida ona tili o‘qituvchi nutqiga qo‘yiladigan talablar mazmuni.....	
<b>III bob. Tajriba – sinov materiallari.....</b>	
3.1.Tajriba sinov materiallari.....	
3.2. Tajriba – sinov ishlari tahlili bo‘yicha qiyosiy tahlil.....	
<b>Umumiy xulosalar va metodik tavsiyalar.....</b>	
<b>Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....</b>	
<b>Tayanch so‘zlarning o‘zbekcha-englizcha lug‘ati.....</b>	

## Kirish

**Mavzuning dolzarbliji.** Yoshlarga ta’lim–tarbiya berishning murakkab vazifalarini hal etish o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini, iste’dodi, tajribasi va madaniyati hozirgi zamon pedagogik texnologiyalarini qo‘llashi, o‘quvchilarni o‘zaro faollikka olib kelishiga bog‘liqdir.

Har bir pedagog shuni doimo hisobga olishi va esda tutishi lozimki, dars o‘quv-tarbiya jarayonining asosiy shaklidir. Dars jarayonida har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalashga e’tibor qaratiladi, birinchi navbatda bu amalga oshiriladi. Shuning uchun ham mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan soha mutaxassislarining fikricha “Pedagogik texnologiya” bu o‘quvchilarni o‘qishi, o‘rganish va ularni har tomonlama rivojlantirish qonun qoidalarini o‘z ichiga olgan pedagogik tadbirlar tizimida iboratdir deyiladi.

Ta’limni texnologiyalashtirish ta’lim jarayonini samaradorligini oshirish va ta’lim oluvchilarni berilgan sharoitda hamda ajratilgan vaqt ichida loyihalashtirilayotgan o‘quv natijalariga erishishlarini kafolatlash maqsadida uni to‘liq boshqarish g‘oyasini tashkil etishdir.

Yoshlar, o‘sib kelayotgan avlod tarbiyasi har bir jamiyat oldidagi eng muhim vazifalardan biridir. Ma’lumki, inson ongi bir necha qatlamlardan tashkil topgan bo‘ladi. Ularning har birini insonning hayotiy tajribasi davomida to‘planib boradigan ijtimoiy ong shakllari sifatida belgilash mumkin. Unga fan, madaniyat, siyosat, axloq, adabiyot, san’at va boshqalar kiradi.

Bugun – O‘zbekiston jahon hamjamiyatida tobora mustahkam va barqaror o‘rin tutib borayotgan bir paytda yoshlarni ma’naviy jihatdan tarbiyalashning o‘rni va ahamiyati yanada dolzarbroq bo‘lib bormoqda. Mamlakatimizda sodir bo‘layotgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-axloqiy muammolarni to‘g‘ri hal qilish birinchi navbatda ularning asl mohiyatini to‘g‘ri anglashga chambarchas bog‘liq bo‘lib qoldi.

Bu yangi tipdagi barkamol inson tipi, barkamol shaxs modelini tasavvur qilishdagi birinchi asosiy tamal toshidir. Uning negizida o‘sib kelayotgan avdodning shaxs sifatidagi shaxsiy sifat-xususiyatlarini har doim e’tiborda tutish

yotadi. Zero, har bir odam – alohida olingen bir olamdir. Ularning har biri birlariga qanchalik o‘xshamasin, ayni paytda shu darajada rang-barang hamdir. Axir bola shaxsining rivojida nihoyatda muhim hisoblanadigan u tug‘ilib o‘sgan oila, mahalla, tuman, viloyatlarning shart-sharoitlari, geografik holati, e’tiqodlari, an’anlari, rasm-rusumlari, hatto, axloqiy-ma’naviy hodisalarga qarashlari hech qachon aynan bir xil bo‘lmasligi ham haqiqat. Bu hodisani buyuk mutafakkir shoirimiz Alisher Navoiy bundan 500 yillardan oldinroq juda go‘zal tarzda aytib o‘tganlar. Alisher Navoiy insonning shaxsiy fazilatlari, imkoniyat va iqtidorining bir xil emasligini, ularning har bir alohida olingen kishilarda boshqa-boshqa tarzda namoyon bo‘lishini shunday ta’kidlagan edi:

Taxayyul aro barcha bir nav’ emas,

Hadisin ikki kishi birdek demas.

(Barchaning fikrashi, xayol qilish tarzi bir xil emas, ikkita odamning nutqi hech qachon bir-biriga o‘xshamaydi). Bundan kelib chiqadigan xulosa shuki, tarbiya jarayonida har bir shaxsga, har bir o‘quvchiga uning o‘ziga xos xususiyatlarini nazarda tutgan holda munosabatda bo‘lishgina tegishli samara beradi.

Muhtaram Prezidentimiz I.Karimov Navoiy hayoti va ijodi haqida gapirib turib,jumladan, shunday degan edilar: “Inson qalbining quvonch-u qayg‘usini, ezgulik va hayot mazmunini Navoiydek teran ifoda etgan shoir jahon adabiyoti tarixida kamdan-kam topiladi. Ona tiliga muhabbat, uning beqiyos boyligi va buyukligini anglash tuyg‘usi ham bizning ongu shuurimiz, yuragimizga avvalo Navoiy asarlari bilan kirib keladi. Biz bu bebaho merosdan xalqimizni, ayniqsa, yoshlarimizni qanchalik ko‘p bahramand etsak, milliy ma’naviyatimizni yuksaltishda, jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarni kamol toptirishda shunchalik qudratli ma’rifiy qurolga ega bo‘lamiz”<sup>1</sup>

Respublikamiz ijtimoiy hayoti va barcha sohalarida davlat tilida jahon o‘lchovlariga mos tarzda ish yurita olish, milliy-ma’naviy qadriyatlarni puxta egalash, o‘z fikrini yozma shaklda to‘g‘ri ifodalay bilish kabi talablar barkamol mutaxassislar tayyorlashning muhim shartidir. Nutq madaniyati hozirgi davr tilshu-

---

<sup>1</sup> Karimov I. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent, Ma’naviyat, 2008, 47-48-Betlar.

noslik fanining dolzarb muammolaridanbirdir. Bu muammoni hal etish umumma-daniyatimiz taraqqiyoti, shuningdek, o‘rta maxsus o‘quv yurtlarida, umu-miy o‘rta ta’lim maktablar va umuman dars o‘tish jarayonini yaxshilash bilan ham bog‘liq. O‘qituvchi va o‘quvchi munosabatidagi majburiy itoatkorlik o‘rnini ongli intizom egallashi juda qiyin kechyapti. O‘qituvchining bosh vazifasi o‘quvchilarga mustaqil fikr yuritish ko‘nikmalarini hosil qilishdan iboratligini ko‘pincha yaxshi tu-shunamiz, lekin afsuski, amalda tajribamizda unga rioya qilmaymiz. Demokratik jamiyatda bolalar, umuman har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanadi. Agar bolalar erkin fikrlashni o‘rganmasa, berilgan ta’lim samarasi past bo‘lishi muqarrar. Albatta bilim kerak. Ammo, bilim o‘z yo‘liga. Mustaqil fikrlash ham katta boylikdir.<sup>2</sup> Shu o‘rinda taniqli tilshunos olim Nizomiddin Mahmudovning kuyunchaklik bilan aytgan fikrlarini keltirib o‘tish lozim: “Ayni paytda nutqiy madaniyat tarbiyasi bilan maktabdagi, hech bir istisnosiz, barcha o‘quv fanlari ham bilvosita shug‘ullanishi kerak. Matematika bo‘ladimi, fizika yoki tarix bo‘ladimi, o‘qituvchi o‘z nutqiy madaniyati bilan namuna ko‘rsatishi, tegishli fan sohasining tugal tilini namoyish etishi va shu yo‘l bilan o‘quvchidagi so‘z sezgisiga kuch berishi maqsadga muvofiq. Ta’lim amaliyotida ko‘rgazmalilik azaldan eng zaruriy omil sifatida qarab kelinadi, shuning uchun o‘qituvchi juda ko‘p vaqtini turli ko‘rgazmali quollar tayyorlashga sarflaydi. Bu ma’qul, ammo, unutmaslik kerakki, nutqiy madaniyatni o‘rgatish, chiroqli so‘z zavqini o‘stirish, umuman, til estetikasi tarbiyasida asosiy, jonli ko‘rgazmali qurol o‘qituvchining o‘zidir”<sup>3</sup>.

O‘zbek adabiy tili va uning normalarini ilmiy o‘rganish ham o‘zbek nutqi madaniyati sohasi uchun nihoyatda muhimdir. Adabiy tilning rivojlanish qonuniyatlarini, adabiy til me’yorlarining umumiyl holatini, hodisalarini chuqurroq tekshir-may turib adabiy tilning nutq madaniyati haqida gapirish aslo mumkin emas.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan dastlabki davrlardanoq jahon taraqqiyotida muhim o‘rin egallah maqsadida eng avvalo, o‘zining mustahkam kelajagi hisoblangan yoshlarning mu-

<sup>2</sup> Karimov I. Barkamol avlod orzusi. T. O‘zbekiston 2003. – B. 16.

<sup>3</sup> Mahmudov N. Ma’rifat manzillari. T. O‘zbekiston, 2002. – B. 23.

kammal bilim egasi qilish va ma’naviy immunitetini mustahkamlashni asosiy maqsad qilib belgiladi. Bunda yoshlarga ta’lim berish jarayonida bevosita ishtirok etuvchi o‘qituvchilarining o‘rni va ahamiyatini oshirishga, ularni o‘z ustida ko‘proq ishlashlari va kelajak avlodni vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalashni muhim vazifalar qatoriga kirgizdi. Ta’kidlash joizki, bu masalaga buyuk allomalimiz ham alohida e’tibor qaratishgan. Jumladan, o‘qituvchi nutqi madaniyati va odobi juda muhim mavzu bo‘lib uzoq davrga borib taqaladi. Notiqlik sana’ti endi vujudga kela boshlagan davrdan notiq Demosfen, Aristotel, Sitsironlar nutq madaniyati masalasiga alohida e’tibor qaratishgan. Masalan: Sitseronning “Notiqlik haqi-da” asari, Aristotelning “Ritorika” asarlari notiqlik nazariyasi rivojiga katta hissa qo‘sghan deb aytsak bo‘ladi. Keyingi asrlarda bu masalasi yuzasidan sharq muta-fakkir allomalari ham o‘zlarining qimmatli ma’lumotlarini qoldirishgan. Jumladan, Kaykovusning “Qobusnomा” asarini olsak asardagi 6-,7-boblari aynan nutq odobi haqida ekanligi, shuningdek, Yusuf Xos Hojibning “Qutatg‘u biling” asari, Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lug‘atayin, “Mahbub ul-qulub” asarlari Boburning “Boburnoma”si o‘zbek nutqi tuzilishining eng nafis va go‘zal namuna-laridandir. Bugungi kunda esa bu masala N.Mahmudov, I.Yo‘ldoshev, R.Rasulov Q.Mo‘yiddinov va boshqa ko‘plab tilshunoslarimiz tomonidan o‘rganilib, o‘z fikr mulohazalarini keltirib o‘tganlar.

**BMIning ilmiy-tadqiqot ishlari rejali bilan bog‘liqligi.** Tadqiqot Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU O‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish fakulteti “O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi” kafedrasining “2017-2018-yillarga mo‘ljallangan BMI mavzulari banki” istiqbolli rejasi asosida amalga oshirildi.

**Tadqiqotning maqsadi.** Ta’lim jarayonida ta’lim sifatini oshirishda bevosita o‘quv jarayonini boshqaruvchi o‘qituvchining nutqi ravon bo‘lishi va berilayotgan ma’lumotning tushunarli yetkazilishiga ahamiyat berilishi lozim. Bunda eng avvalo, ona tili o‘qituvchilarining nutq madaniyati alohida e’tibor talab qiladi. Ona tili o‘qituvchilarining nutq odobi va madaniyatini asoslarini ishlab chiqish, foydalanish yo‘llarini tadqiq etishdan iborat.

**Tadqiqotning predmeti.** Nutq madaniyati yuzasidan allomalarning fikr mu-lohazalari yoriltigan kitoblar va qo'llanmalar, o'qituvchi nutqi madaniyatini aynan, ona tili o'qituvchisining nutqini to'g'ri shakllantirish, jumlalarni mantiqan to'g'ri, aniq, ravon tuzishini ta'minlashga qaratilgan o'quv materiallari darslik va qo'llan-malardan foydalanishga qaratilgan dars jarayoni tashkil etish mazmuni, shakli va vositalari.

**Tadqiqotning vazifalari.** Tadqiqot maqsadidan kelib chiqib, quyidagi vazifa-larni bajarish ko'zda tutildi:

- ona tili o'qituvchisining nutqi aniq, ravon, tushunarli, mantiqan to'g'ri bo'lishini ta'minlash to'g'risida tavsiyalar berish;
- ona tili o'qituvchisi nutqida uchrashi lozim bo'lgan elementlarni rivojlan-tirish;
- ona tili o'qituvchisi nutqida uchrashi o'rinsiz komponentlardan xalos bo'-lish yo'llari bo'yicha mashqlar va tavsiyalar berish;

**Ishning ilmiy yangiligi.** Ta'lim jarayonida barcha fan o'qituvchilari o'z fani yuzasidan keng bilim va ma'lumotlar berib boradilar. Shu o'rinda aynan vatanga muhabbat mehr sadoqat ruhini uyg'otuvchi ona tili o'qituvchisining nutqini bosh-qa fan o'qituvchilari nutqida uchramaydigan jihatlarini ochib berish jarayonida bir qator ishlar amalga oshirildi.

- *Ona tili o'qituvchisi nutqiga xos badiiy ifodalar yuzasidan tavsiyalar berildi.*
- *Ona tili o'qituvchisi nutqida aynan kerakli komponentlar yuzasidan ishlar olib borildi.*
- *Ona tili o'qituvchsining nutqi boshqa fan o'qituvchilari nutqi bilan solishtirildi.*

**Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi.** BMI Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU O'zbek tili va adabiyotini o'qitish fakutetining "O'zbek tilini o'qitish metodikasi" kafedrasи yig'ilishida muhokama qilinib, himoyaga tav-siya qilingan. Tadqiqot natijalari bo'yicha seminarlar va tajriba sinov ishlari o't-kazildi (tajriba sinov materiallari ilova qilinadi)

**Ishning tuzilishi va hajmi.** Bitiruv malakaviy ishi uch bob, umumiylar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati, BMIda qo‘llangan terminlarning o‘zbek-cha-inglizcha lug‘ati va ilovalardan iborat. Ishning umumiyligi 63 sahifani tashkil qiladi.

# I BOB. O'QITUVCHI NUTQI MADANIYATI MASALASINING

## O'RGANILISHI

### 1.1 Nutq madaniyatining shakllanishi va rivojlanish konsepsiysi

Nutq madaniyati muammosi insoniyat sivilizatsiyasining barcha bosqichlarida o'rta qo'yib kelinganligi ham sir emas. U ta'limot sifatida qadimgi Rim va Afinada shakllangan bo'lsa ham, shunga qadar Misr va Assuriyada, Hindiston va Xitoyda mavjud bo'lganligi notiqlik san'ati tajribasidan ma'lum. Gap shundaki, u payt-larda davlat arboblarining obro'-e'tibori va yuqori lavozimlarga ko'tarilishi ularning notiqlik mahoratiga ham bog'liq bo'lgan. Yunon notig'i Demosfen (eramizdan oldingi 384-322) va Rim notig'i Sitseron (eramizgacha 106-43) larning hayoti bunga misol bo'la oladi. O'rta Osiyo madaniyati tarixida ham nutq madaniyati bilan shug'ullanish o'ziga xos mavqega ega bo'lgan. Ulug turk olim Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarlari bu masalaning juda qadimdan o'rta qo'yib kelinganligidan dalolat beradi. U paytlar "nutq odobi" deb yuritilgan sodda va o'rinli gapirish, qisqa va mazmundor so'zlash, ezmalik va laqmalikni qoralash, keksalar vaustozlar oldida ga-pirganda odob saqlash, to'g'ri, rost va dadil gapirish, yolg'onchilik va tilyog'lamalikni qoralash singari bir qator qoida va ko'rsatmalar bugun biz "nutq madaniyati" deb atab kelayotgan tushunchaning aynan o'zidir. Mahmud Koshg'ariyning "Devon" ida nutq odobi uchun ahamiyatlibo'lgan til ma'lumotlari bilan birgalikda nutq, nutq madaniyati, nutqiygo'zallikka oid qimmatli ma'lumotlar mavjud. Birgina misol:

Ko'p sukutga qush qo'nar, Ko'rkluk kishiga so'z kelar, ya'ni, shoxiko'p, shoxlari o'ralib ketgan daraxtga qush qo'nadi, yaxshi kishiga so'z (maqtov) keladi.

Tarixda davlat arboblarining obro'-e'tiborlar va yuqori lavozimlarga ko'tarilishi ularning notiqlik mahoratiga ham bog'liq bo'lgan. Notiqlik san'ati sarkardalik mahorati bilan barobar darajada ulug'langan. Mashhur notiq Sitsiron: "Tarixda yo yaxshi harbiy sarkarda, yo yaxshi notiq bo'lish kerak", degan ekan. Ulug' vatandoshimiz Abu Nasr Farobiy to'g'ri so'zlash, to'g'ri mantiqiy xulosalar chiqarish, mazmundor va chiroyli nutq tuzishda leksikologiya, grammatika va

mantiqning na-qadar ahamiyati kattaligi haqida shunday deydi: “Qanday qilib ta’lim berish va ta’-lim olish, fikrni qanday ifodalash, bayon etish qanday so‘rash va qanday javob be-rish (masalasi)ga kelganimizda, bu haqda bilimlarning eng birinchisi jismlargacha va hodisalarga ism beruvchi til haqidagi ilmlar deb tasdiqlayman”. Kaykovus tomonidan 1082-1083-yillarda yaratilgan, qadimgi Sharq pedagogikasining ajoyib asarlaridan biri hisoblangan “Qobusnama” da ham nutq odobi va madaniyati haqida ibratomuz fikrlar aytilgan. Asar 44 bobdan iborat bo‘lib, uning 6-, 7- boblari so‘z odobi haqidadir. Muallif farzandiga qilgan nasihatlari orqali o‘quvchini yoqimli, muloyim, o‘rinli so‘zlashga, behuda gapirmaslikka undaydi. Nutq odobi deb yuritilgan qoida va kurs atamalarda sodda va o‘rinli gapirish qisqa va mazmundor so‘zlash, ezmalik, laqmalikni qoralash, keksalar ustozlar oldida nutq odobini saqlash, to‘g‘ri, rost va dadil gapirish, yolg‘onchilik, tilyog‘lamalikni qoralash va boshqa shu kabi mavzularda so‘z boradi. «Qobusnama»da ham nutq odobi va madaniyati haqida ibratomuz fikrlar aytilgan. Muallif farzandiga qilgan nasihatlari orqali o‘quvchini yoqimli, muloyim, o‘rinli so‘zlashga, behuda gapirmaslikka undaydi. So‘zlaganda o‘ylab, har bir fikrdan kelib chiqadigan xulosani ko‘z oldiga keltirib gapirish kerakligini, kishi aql-idrokli bo‘lishi, o‘zini xalq orasida omiy, kamtar tutishi lozimligini eslatib, mahmadonalik qilish, ko‘p gapirish donolik belgisi emasligini ta’kidlab, “Hamma qobiliyatlardan eng yaxshisi nutq qobiliyatidir” deydi. « Ey farzand, agar sen har qanday notiq bo‘lsang ham, o‘zingni bilganlardan pastroq tutgil, toki so‘z bilimdonligi vaqtida bekor bo‘lib qolmagaysan. Ko‘p bilu, oz so‘zla, kam bilsang, ko‘p so‘zlama, chunki aqlsiz kishi ko‘p so‘zlaydi, deganlarki, jim o‘tirish salomatlik sababidir. Ko‘p so‘zlovchi aqli odam bo‘lsa ham, xalq uni aqlsiz deydi...» - deb uqtiradi alloma. U axloqlilikning birinchi belgisi, sxandonlik deb biladi. Suxango‘ylar notiqlikda rost so‘zlash kerak. So‘zlaganda andishalik bo‘lish, sovuq so‘zlik bo‘lmaslik, kam gapirish, kamtarlik, birovning so‘zini diqqat bilan eshitish ularning burchidir deb ta’kidlaydi.

Taniqli notiqlar ham o‘z nutqlarining namunali bo‘lishini ta’minlashda quydagi asosli holatlarga alohida e’tibor berganlar:

1. O‘zi to‘xtalmoqchi bo‘lgan masalaga o‘z munosabatini aniq belgilab olish;
2. O‘z dunyoqarashiga ega bo‘lish, so‘z bilan ish birligi, nazariya bilantajribaning dialektik birligiga erishish, fikrlarni ilmiy asoslash;
3. Mavzuga mas’uliyat bilan yondoshish, uni omma oldida to‘liq ochib berishga, yoritishga diqqa qilish;
4. Har bir nutqqa jiddiy tayyorgarlik ko‘rish, jumladan, ma’ruzani nimadan boshlashdan tortib, nima bilan tugatishgacha jiddiy o‘ylab olish, masalalarni o‘rtaga tashlash, ketma-ketligini yaxshi belgilab olish, ularning o‘zaro bog‘lanishini ta’minlash, ma’lum rejalar yoki reja-konspektlar tuzib olib, o‘zi uchun alohida va keng to‘xtalish zarur bo‘lgan urinishlarini belgilab olish va b.

Ma’lumki oliy maktab o‘qituvchisi chukur bilimli, yuksak pedagogik qobiliyatli, ayniksa, nutq madaniyatini egallagan bo‘lishi lozim. Odatda, talabalar o‘qituvchiga nisbatan o‘ta talabchan tankidiy kuz bilan karaydilar. Ular birinchi uchra-shuvdayoq uning pedagogik mahoratiga, bilim saviyasiga, uzini tutishi va tashki kiyofasiga, shuningdek, gap-so‘ziga xamda talabalar bilan muomilasiga karab xukm chikaradilar. Zero nutq madaniyati nutq adabiy til koidalariga asoslangan, muayyan talab va usullarga buysungan xolda namoyon bo‘lishi kerak. Nutq madaniyati notiqlik san’atining tarkibiy kismi xisoblanadi.

Nutqni ilmiy, sermazmun, anik, ravshan, tinik, ravon, tugri, badiiy, mantikiy, jarangdor bayon etishdan iborat. Buning uchun nutq, avvalo, orfoepik, qolaversa adabiy til konun-qoidalariga tulik javob berishi lozim. Ana shu kabi muammo va masalalar kursni o‘rganishning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Nutq madaniyati tushunchasi, uning tilshunoslikda paydo bo‘lishi, nutq madaniyati tushunchasi haqida rus tilshunoslari fikrlari, to‘g‘ri nutq va nutq madaniyati, “Yaxshi nutq” tushunchasi, yaxshi nutq va uning sifatiy belgilarini o‘rganish nutq madaniyatining asosiy vazifasi ekanligi bilan izohlandi.

Nutq madaniyati va ortologiya. Ortologiya to‘g‘ri va aniq nutqni o‘rganuvchi soha. Nutq madaniyati nutqiy malaka, kunikma sifatida. Madaniy nutq mala-

kasi. Madaniy nutq malakasi o‘zbek adabiy tili va uning me’yorlarini egallash ekanligi ahamiyatlidir. Yosh avlodda madaniy nutq malakasining kelishi va takomillashuvida maktabgacha bo‘lgan bolalar muassasalarining, o‘rta va oliv maktab ta’limining o‘rni. O‘rta maktab kishilarida nutq madaniyatini tarbiyalashning asosiy o‘chog‘i sifatida va bunga doir ba’zi muammolar, vazifalar bajarilishi belgilab chiqildi.

Nutq madaniyatini egallahda mustaqil shug‘ullanishning o‘rni va ahamiyati: tilga diqqat qilish, o‘zbek adabiy tilining asosiy qonun va qoidalarini o‘rganish, ulardagagi nozik o‘rinlarni o‘zlashtirish, nutq madaniyatini egallahda badiiy adabiyotning, televidenieva radio nutqining, gazeta va jurnallar tilining ahamiyati. Notiqlik san’ati sirlarini egallahga intilish, atoqli notiqlarning tajribalarini o‘rganish va ularga taqlid qilish usullari.

O‘qituvchining pedagogik faoliyatida nutq texnikasini egallah muhim ahamiyatga ega. Buning uchun bo‘lajak o‘qituvchi avvalo nutq sirlarini, uning o‘quvchilar bilan bo‘ladigan muloqotda ta’sir kuchini puxta bilishi kerak. Nutqning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish uchun, nutq texnikasiga oid talablarni bilish lozim. Bu talablar nutqning mantiq jihatdan to‘g‘ri, aniq, chiroyli, yorqin va maqsadga muvofiq bo‘lishidir.

Pedagog va psixolog olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, o‘z faoliyatini endigina boshlayotgan o‘qituvchilar duch keladigan qiyinchiliklarning asosiysi aynan pedagogik texnikaga oid ma’lumotlarni bilmaligi oqibatida sodir bo‘lmoqda. Pedagogik texnika to‘g‘risida yuqorida aytib o‘tilgan fikr va mulohazalarga e’tibor qilmaslik, pedagogik faoliyatda nazariy va amaliy tajribalarning yo‘qligi, o‘z faoliyatiga tanqidiy nazar bilan baho berolmaslik oqibatida hamda o‘qituvchida individual pedagogik texnikani rivojlantirish, tahlil qilish va uni takomillashtirish yuzasidan aniq maqsadga qaratilgan pedagogik faoliyatning yo‘qligi mazkur qiyinchiliklarning asosiy sabablaridan biri ekanligini unutmaslik kerak.

Pedagogika oliy ta’lim muassasalaridagi kasbiy tayyorgarlik jarayonida pedagogik texnikani egallah bo‘lajak o‘qituvchiga o‘zining kasbiy yo‘nalishining

boshlanishidayoq ko‘pgina xatolardan holi bo‘lishda, talabalarga ta’lim-tarbiya berishning yuksak samaradorligiga erishishda yordam beradi.

## **1.2. O‘qituvchining kommunikativ kompitensiyasi darajasi**

Nutq so‘zlovchi yoki yozuvchi tomonidan shakllantirilgan matning tashqi ko‘rinishi bo‘lib, u faqatgina tilga bog‘liq hodisa sanalmasdan, u ham ruhiy, ham estetik hodisadir. Shuning uchun unga ma’naviy nutq sifatida baho berilganda tinglovchi va kitobxongako‘zda tutilgan maqsadning, aytilmoqchi bo‘lgan mud-daoning to‘liq borib yetishi, ularga ma’lum ta’sir o‘tkazishi nazarda tutiladi hamda bu vazifalarning amalga oshirilishida nutq oldiga ayrim talablar qo‘yiladi. Bu talablar garmmatik jihatdan nutqning to‘g‘ri bo‘lishini, so‘zlar ko‘zlangan ma’noni aniq aks etirishini, chiroyli, yorqin va ta’sirchan bo‘lishini taqozo qiladiki, ular nutqning asosiy xususiyatlari sifatida qaraladi.

Bugungi pedagogik jarayon, jumladan til va adabiyot turkumidagi fanlarni o‘qitish mazkur jarayonga, xususan, ta’lim maqsadlari mohiyatini muayyanlash-tirishga yangicha yondashuvlarning ustuvor mavqe tutib borayotgani bilan ajralib turadi. „Kompetensiya” “kompetentlik” atamalarining ta’lim jarayonida qo‘llanilayotganiga ko‘p bo‘lmadi.

Kompetensiya so‘zi aslida lotincha *competere* so‘zidan olingan bo‘lib, *mos kelish* degan ma’noni anglatadi. Ya’ni, lug‘aviy ma’nosidan kelib chiqsak, kompetensiya – ko‘zlangan natijalarga erishish uchun bilim, ko‘nikma va malakalarni qo‘llay olish qobiliyatini namoyish eta olishni bildiradi<sup>1</sup>. Ta’limiy kompetensiyalar ikki guruhgadan iborat:

- 1) Tayanch (umumiy) kompetensiyalar
- 2) Maxsus (fanga oid) kompetensiyalar.

Tayanch kompitentsiyalar o‘z navbatida bir necha tarmoqlarga bo‘linadi:

### **1. Kommunikativ kompetensiya**

- a) Jamiyatda o‘zaro muloqotga kirishish uchun ona tili va birorta xorijiy tilni mukammal o‘zlashtirish hamda muloqotda samarali foydalana olish;
- b) ijtimoiy moslashuvchanlik, o‘zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish jamoaviy hamkorlikda ishlay olish;
- d) muloqotda suhbatdosh fikrini hurmat qilgan holda o‘z pozitsiyasini himoya qila bilish;

e) turli ziddiyatlari vaziyatlarda o‘z ehtiroslarini boshqarish, muammo va kelishmovchiliklarni hal etishda zarur (konstruktiv) bo‘lgan qarorlarni qabul qila olish.

## 2. Axborot bilan ishslash kompetensiya

- a) mavjud axborot manbalaridan foydalana olish
- b) ma’lumiotlar bazasini yarata olish, asosiyalarini tanlay olish va ularni tahlil qila bilish
- d) kundalik hayotda uchraydigan hujjatlar bilan ishlay olish: oddiy tabriknomalar yoza olish, anketalarni to‘ldirish va hokazo.

## 3. Shaxs sifatida o‘z –o‘zini rivojlantirish kompetensiyasi

- a) shaxs sifatida doimiy ravishda o‘z-o‘zini rivojlantirish, jismoniy, ma’naviy, ruhiy va intellektual kamolotga intilish
- b) o‘z xatti-harakatini abyektiv baholash, o‘zini nazorat qila bilish, halollik, to‘g‘rilik kabi sifatlarga ega bo‘lish
- d) o‘qib-o‘rganganlari va hayot tajribasidan foydalangan holda kundalik turmushda uchraydigan muammolarni hal eta olish

## 4. Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi

- a) jamiyatda bo‘layotgan voqeа, hodisa va jarayonlarga daxldorlik his etish va faol ishtirok etish – o‘zining faol fuqarolik burch va huquqlarini bilishi, unga rioya qilish;
- b) mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala, iqtisodiy, huquqiy madaniyatga ega bo‘lish;
- d) kasbiy mavqeining o‘sishiga intilish bilan jamiyat va oilasi manfaatlari uchun hizmat qilish, yordamga muhtojlarga sahovatli bo‘lish.

## 5. Umummadaniy kompetensiyalar

- a) vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadryatlarga e’tiqodli bo‘lish;
- b) orasta kiyinish, yurish-turishda madaniy me’yorlarga va sog‘lom turmush tarziga rioya qilish;

d) umumbashariy ahamiyatga ega bo‘lgan qadryatlarni bilish, unga hurmat bilan munosabatda bo‘lish;

e) o‘zgalarning dunyoqarashi, diniy e’tiqodi,milliy va etnik xususiyatlari ana’na va marosimlarini hurmat qilish.

Maxsus kompetensiyalar esa har bir fanning o‘rganilish obyekti va maqsadidan kelib chiqgan holda shakllanadi. Masalan, matematika fanining kompetensiyasi - fan bo‘yicha egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni kundalik hayotida duch keladigan amaliy va nazariy masalalrni yechishda foydalanish va amaliyotda qo‘llay olish qobiliyatidir.

O‘tgan o‘quv yillarida umumta’lim maktablari va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassalarida 16 ta fandan predmetga oid kompetensiyalrn shakllantirish bo‘yicha tajriba-sinov ishlari olib borildi. Kompetensiya bu – o‘quvchini hayotga tayyorlash, egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini muayyan vaziyatlarda qo‘llay bilish, jamiyatda bo‘layotgan voqeа-hodisalarda faol ishtrok etish, umuminsoniy va milliy qadryatlarga hurmat hissini shakllantirishdir. Tajriba-sinov ishlari davomida bunday kompetensiyalarni shakllantirish bevosita o‘quvchilardagi kommunikativlik, o‘z-o‘zini rivojlantirish, matematik savodxon bo‘lish kabi xislatlar bilan bog‘liq ekanligi ma’lum bo‘ldi. Bundan tashqari sinfda o‘qitiladigan faqat bittagini fan vositasida o‘quvchini kompetent shaxs sifatida tarbiyalab bo‘lmasligi ham ayon bo‘ldi. Shundan kelib chiqib, respublikadagi ayrim ixtisoslashtirilgan maktablarda 2017-2018 o‘quv yillarida bitta sinfda 5-6 fandan o‘quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishnin metod va usullari bo‘yicha tajriba –sinov ishlari olib borilmoqda. Maqsad: barcha fanlar uchun umumiyl bo‘lgan,o‘quvchilardagi kompetensiya elementlarini shakllantirishda eng ko‘p samara keltiradigan usullarini aniqlab, tajribadan o‘tkazish, ulardan eng samaralisini amaliyotga tatbiq etishdir. Bu borada respublika ta’lim markazi tomoidan berilayotgan tavsiya va usullar, shubhasiz, dasturulamal bo‘lib hizmat qilmoqda.

**Kompetensiya** – muayyan bilim, ko‘nikma va malakalarning majmui bo‘lib, ular tufayli inson, shaxs turli sohalarga oid faoliyat turlaridan xabardor bo‘ladi hamda tegishli amaliy ish tajribasini egallaydi.

Ammo kompetentlik an'anaviy bilim, ko'nikma va malakalarning oddiygina qo'shiluvidan iborat degani emas. Kompetentli yondashuv o'quvchining muayyan sohalardan xabardorlik darajasini emas, balki o'xshash holatlarda muayyan masalalarni yecha olish, navbatdagi vaziyatlarga ularni tatbiq eta bilishni birinchi o'ringa olib chiqadi. Bunda o'quvchilarning ona tili va adabiyotga oid asosiy kompetentlik darjasini boshqa fanlardagi shu tip kompetensiyalarining o'zlashtirilishi uchun ham muhim omil vazifasini ado etadi. Xususan,

- Zamonaviy texnika va texnologiyalarni o'zlashtirishda;
- Kishilarning o'zaro muloqotida;
- Axloqiy me'yor va mezonlarni o'zlashtirishida;
- O'z xatti-harakatlarini baholashida;
- Amaliy hayotda fuqaro, oila a'zosi, saylovchi, xaridor rollarini ado etayotganida;
- Mehnat bozoriga tayanib turib yangi kasb-hunarlarini egallash uchun mo'ljal olishda;

Turli hayotiy ziddiyatlarni yengish yo'llarini, hayot tarzini tanlashida ona tili va adabiyot predmetlari asosida egallangan kompetensiyalar katta rol o'ynaydi.

**Ta'lif mazmunidan kelib chiqqan holda kompetensiyaning quyidagi turlari ajratiladi:**

- Tayanch yoki predmetlararo kompetensiyalar;
- Bir turkum predmetlarga oid kompetensiyalar;
- Faqat bir predmetga oid kompetensiyalar.

Ona tili va adabiyot fanlarini o'qitishdagi yangicha yondashuvning bosh maqsadi o'quvchi shaxsining har tomonlama rivojini ta'minlashdan, nazariy tafakkurini, lisoniy layoqat va iste'dodini rivojalantirishdan, nutqiy muloqot madaniyatini egallashi va ma'naviyatini shakllantirishdan iborat.

Demak, ona tili va adabiyot fanlarini puxta o'zlashtirgan o'quvchi tegishli bilim, ko'nikma va malakalarni egallash bilangina kifoyalanib qolmasdan, ularni is-

talgan yangi hamda notanish vaziyatlarda, hayotiy zarurat sezilganida tatbiq eta oladigan darajaga yetganidagina shu vazifalar amalga oshgan bo‘ladi.

*Ona tili fanidan kompetensiylar quyidagi guruahlarga ajratiladi:*

Lingvistik kompetensiya – til sathlari (fonetika, lektsika, grammatika) haqida bilimlar va tilning ifoda vositalarini (o‘qish texnikasi, o‘zgalar fikrini va matn mazmunini anglash, fikrni yozma shaklda bayon etish) egallashni nazarda tutadi.

Sotsiolingvistik kompetensiya – so‘zlovchining biror bir nutqiy vaziyat, kommunikativ maqsad va xohish istagidan kelib chiqqan holda kerakli lingvistik shakl, ifoda vositalarni tanlash imkonini yaratadi.

Pragmatik kompetensiya – kommunikativ vaziyatda tushunmovchiliklar paydo bo‘lganda takroran so‘rash, uzr so‘rash, va hokazolar orqali murakkab vaziyatlardan chiqib keta olish, egallangan bilimlarning amaliy imkoniyatlaridan o‘rinli foydalana olish qobiliyatini nazarda tutadi.

O‘qituvchi o‘zbek tilining umumdidaktik prinsiplari bilan yaxshi tanish bo‘lishi, ham yaxshi bilishi va ta’lim jarayonida unga qat’iy amal qilishi lozim.

O‘zbek tili o‘qitish metodikasiga bag‘ishlangan adabiyotlarda ona tili o‘qitishning o‘ziga xos prinsiplari xususida turlicha fikrlar bayon qilinadi. Ayniqsa, bu turli-tumanlik printsiplarning nomlanishida, tushunchalarni izohlashda ko‘proq ko‘zga tashlanadi.

Ona tili o‘qitishning o‘ziga xos prinsiplari shu tilning o‘z tabiatidan kelib chiqadi. Tildan o‘rganiladigan bilimlarning manbai o‘zbek tilshunosligi fani hisoblanadi. Zotan, tildan beriladigan bilimlarning nazariy asoslari, ularning o‘ziga xos xususiyatlari tilshunoslik fanida bat afsil bayon etilgan. Ammo tilshunoslik fanida tilni qanday o‘rganish kerak, tilda o‘zlashtiriladigan bilimlarning hajmi va munda rijasi qanday bo‘ladi, degan masalalar o‘rganilmaydi. Bular tilshunoslikning vazifasidan holi emas.

Bu savollar bilan metodika shug‘ullanadi. Demak, tilni o‘qitishning metodik prinsiplari, bir tomonidan o‘zbek tilining o‘z xususiyatlaridan kelib chiqsa, ikkinchi tomonidan tilni o‘zlashtirish psixologiyasiga ko‘ra belgilanadi.

Har bir jamiyatda bilimli mutaxassislar, yetuk kadrlar davlatning gullab-yash-nashi va rivojlanishishi uchun suv va havodek zarur bo‘lgan va ular ma’lum dara-jada jamiyatning taraqqiyotini belgilaganlar.

O‘zbekistonda ham keyingi paytlarda ta’lim sohasiga, malakali kadrlar soha-siga alohida e’tibor berilayotgani bejiz emas. Davlatimiz tomonidan qabul qilina-yotgan qaror va qonunlarida ham buning yorqin ifodasini yaqqol ko‘rshimiz mum-kin.

Albatta, chuqur bilim olgan, yaxshi tarbiya ko‘rgan komil insonni, kelajagi-miz egasini voyaga yetkazish uchun “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun va “Kadrlar tay-yorlash milliy dasturi” qabul qilingandan so‘ng respublikamiz butun ta’lim tizimi-ni tubdan isloh qilish, barkamol avlodni voyaga yetkazishning aniq strategik yo‘-nalishlariga ega bo‘ldi.

1997-yil 6-oktabrda O‘zbekiston Prezidentining “Ta’lim-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish, barkamol avlodni voyaga yetkazish to‘g‘ri-sida”gi farmoni bilan bu masala davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan qilib belgilandi.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” da ta’lim tizimlarini, uning mazmunini boshqarish va rivojlantirishni ta’minalashni tubdan isloh qilish yo‘llari ko‘rsatiladi.

Demak, ta’lim-bu murakkab va mas’uliyatli jarayon. Bu jarayonda o‘quvchi-ning savodxonligi alohida o‘rin tutadi. Chunki savodxonlik kishining bilimlilik va madaniyatligining muhim belgilaridan hisoblanadi.

Kishining hayotiga qarab, uning bilimidan tashqari dunyoqarashi va kayfiya-tini ham aniqlaganlar.

Tarixga nazar tashlasak, savodli va xushxat kishilar qadimdan el nazari va hurmatida bo‘lganligiga guvoh bo‘lamiz. Munis, Ogahiy kabi ziyolilarning hayoti va ijtimoiy mavqeい ham fikrlarimizni dalillaydi.

Kishining savodxonligi uning bilimi doirasida shunchalik o‘rin tutar ekan, savodxonlik masalasining tilshunoslikdagi o‘rni muammosiga ham to‘xtalib o‘ti-shimiz kerak.

Ma'lumki, dars o'quv tarbiya ishlarini tashkil etishning yetakchi shakli hisoblanadi. Ona tili mashg'ulotlarini to'g'ri tashkil etish, dars uchun ajratilgan vaqtdan unumli foydalanish, darslarning samaradorligini oshirishda muhim omillardandir.

Maktabda ona tili o'qitishning asosiy maqsadi o'quvchilarda nutq madaniyatini shallantirish bo'lib, bu o'quvchilarning o'zbek tilidan bilimlar sistemasini egallashlari, ularda turli nutq ko'nikmalarini hosil qilish, ijodiy qobiliyatlarini taraqqiy ettirish bilan harakterlanadi. Grammatik bilim, ko'nikma va ijodiy faoliyat nutq madaniyatining tarkibiy qismi hisoblanadi. Nutq madaniyati tarkibiy qismlariga ko'ra quyidagicha uch xil vazifa belgilanadi:

1. O'zbek tilidan nazariy bilimlarni o'zlashtirish; bilimlarni o'rghanish, mustahkamlash, takrorlash, sistemalashtirish, tekshirish. Bular ona tili o'qitishning didaktik vazifalari sanaladi.
2. Nutq ko'nikmalari (orfoepik, orfografik, stilistik, punktuatsion) turli grammatik mashqlar ustida ishslash vositasida hosil bo'ladi. bular malaka va ko'nikmalarni shakllantirishga doir vazifaldir.
3. Til faktlari asosida xulosalar chiqarish, turli manbalardan o'rghanilgan mavzularga oid faktlar to'plash, bilimlarni yangi sharoitlarga tadbiq etish natijasida o'quvchilarda ijodiy faoliyat tarkib topadi. Ijodiy faoliyatni takomillashtirish maqsadida o'tkaziladigan ishlar ijodiy vazifalar hisoblanadi<sup>4</sup>.

Dars bu ijodiy jarayon. Darslarda o'quvchilarning ijodiy faoliyati qancha taraqqiy ettirilsa, ular o'z oldiga qo'ygan aqliy vazifalarni shuncha qiynalmasdan bajaradilar. Bola topshiriqlarni o'rghanib borgan sari unda fikr yuritish qobiliyati shakllana boradi.

Darslarni ijodiy tashkil etish vaqtdan unumli foydalanish, mashg'ulotlarni qiziqarli tarzda tashkil etish o'qituvchida zo'r mahorat talab etadi.

Dars inson tafakkuri durdonalarini fan texnika yutuqlarini, milliy madaniyatini yoshlarga singdirishning asosiy shaklidir.

Dars ta'limning boshqa shakllaridan o'zining tashqi va ichki xususiyatlariga ko'ra farq qiladi. O'quvchilarning doimiy huquqi, qat'iy rejim va dars jadvali,

<sup>4</sup> Розиков О. Ўзбек тилидан дарс типлари. Т. Ўзбекистон, 1976,- Б.3.

mashg‘ulotlarni ma’lum bolalarda o‘tkazish kabilar tashqi xususiyatlariiga darsning maqsadi, o‘quvchilarning bilim olishga qiziqishlari, ta’lim materialini his qilishga,

anglash, tushunish kabilar ichki xususiyatlarga kiradi. Dars ana shu ikki xil xususiyatning o‘zaro uyg‘unlashuvi zaminida tashkil etiladi.

O‘zbek tili mustaqil O‘zbekiston Respublikasining davlat tili deb qonunlash-tirilgandan keyin xalq ta’limi oldiga Respublika taraqqiyoti uchun xizmat qiladigan tadbirdor va ijodkor insonni tayyorlash masalasi qo‘yilaadi.

Ona tili mashg‘ulotlarida yoshlarni erkin va mustaqil tafakkur egasi, ijodiy izlanuvchan, milliy g‘oya va ajdodlarimiz an’analarini e’zozlaydigan, vatanparvar insonlar qilib tarbiyalashda ona tili o‘qituvchisining mas’uliyati katta.

Darsga tayyorlanish jarayoni o‘qituvchi pedagogik mahoratining shakllani-shida muhim o‘rin tutadi.

Darsga tayyorlanish tartibi quyidagicha bo‘lishi maqsadga muvofiq:

- darsni zamonaviy pedagogik texnologiya asosida tashkil qilish, maqsad va vazifani to‘g‘ri belgilash;
- o‘quvchilarga milliy mafkura va istiqlol g‘oyalarini singdirish;
- dars mavzusini mukammal yoritishga xizmat qiladigan zamonaviy o‘quv-texnika vositalaridan unumli foydalanish;
- o‘quvchini til hodisalarini kuzatish, farqlash va sharxlashga yo‘naltiradigan kompyuter dasturlari, multimedya, kodoskop xizmatidan foydalanishga o‘rgatish;
- o‘quvchining erkin, mustaqil va ijodiy fikrlashi uchun qulay sharoit va imkoniyatlar yaratib berish;
- o‘quv dasturlari, DTS talablarini to‘liq va mukammal amalga oshirish;
- egallangan bilim, ko‘nikma va malakalar darajasini muntazam kuzatib borish va o‘quvchini obyektiv baholash;
- o‘rganilgan mavzuni takrorlash, mustahkamlash va umumlashtirishga mo‘ljallangan kommunikativ jadvallardan muntazam foydalanish;
- har bir mashg‘ulot so‘ngida o‘quvchi imkoniyatiga qarab, uy vazifasi berish va uni to‘g‘ri bajarganini nazorat qilish;
- o‘quvchi nutqi yangi paydo bo‘lgan so‘zlar bilan boyitish;

- nutqiy madaniyat me’yorlarini singdirish;
- o‘quvchilar qiyosiy tasnif, alohidalash va guruhlash ko‘nikmalarini shaklantirish, matn tahlili va matn yaratish bilan muntazam shug‘ullantirish;
- muomala-muloqotning sharqona odob va axloqqa asoslangan an’aviy usul-lardan samarali foydalanish<sup>5</sup>.

Ayniqsa, yosh o‘quvchilar ijodkor, izlanuvchan murabbiylar tajribasini o‘rganish va amaliyotga joriy etishda faqat tahlid qilmasdan, o‘z o‘quvchilarining yoshi, o‘zlashtirish darajasi, sinf jamoasining tayyorgarligiga qarab darsni tashkil etish; o‘qitish printsiplari vositalariga to‘g‘ri amal qilish; ona tilidan bilimlar tizimining bosqichma-bosqich ketma-ketlikda va bo‘limlararo va fanlararo bog‘lanishda bo‘lishiga e’tibor berilishi zarur.

Ona tili ta’limining bosh maqsadi nutqiy mukammallikni ta’minlash va imlo ning yuqori darajasiga erishishdir. Demak, o‘qituvchi asosiy e’tiborini o‘quvchining so‘z boyligini oshirish, go‘zal, ixcham va ravon jumlalar tuzish, matn yaratish va uni mustaqil tahlil qila bilish masalalariga qaratmog‘i lozim.

Ona tili ta’limini oldiga qo‘yilgan asosiy vazifa o‘qituvchi shaxsini fikrlashga, o‘zgalar fikrini anglashga va shu fikr mahsulini og‘zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga, ya’ni kommunikativ savodxonlikni rivojlantirishga o‘rgatishdan iborat. Shundan kelib chiqqan holda, ona tili ta’limi oldiga ijtimoiy jihatdan mukammal shakllangan, mustaqil fikrlay oladigan, nutq va muloqat mada niyati rivojlangan savodxon shaxsini kamol toptirish maqsadi qo‘yiladi.

Bugun O‘zbekiston demokratik huquqiy davlat vaadolatli fuqarolik jamiyati qurish yo‘lidan izchil borayotganligi uchun kadrlar tayyorlash tizimi tubdan isloh qilindi, davlat ijtimoiy siyosatida shaxs manfaati va ta’lim ustuvorligi qaror topdi. O‘quv-tarbiyaviy jarayonni ilg‘or pedagogik texnologiyalar bilan ta’minlash zaru rati ham Kadrlar tayyorlash milliy dasturini ro‘yobga chiqarish shartlaridan biridir. Shu sabab biz bu pedagogik fenomenning paydo bo‘lishi va rivojlanish jarayonini o‘rganishga tarixiy yondashmoqdamiz.

---

<sup>5</sup> Тўхлиев Б., Шамсиева М., Зиядова Т. –Ўзбек тили ўқитиши методикаси.-Т, 2006. - Б.46

Respublikamizdagi oliy (o‘rta maxsus, kasb-hunar, mакtab) ta’limi tizimida faoliyat ko‘rsatayotgan professor-o‘qituvchilarni malaka oshirish kurslarida ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalari bo‘yicha yangi bilimlar tizimi bilan qurollantirishni uzluksiz tashkil etish davr talabidir. Bugun pedagogik texnologiya alohida fan sifatida pedagogika oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlarining o‘quv rejasiga ham kiritildi.

Hozirgi zamon sharoitida, yuqori malakali kadrlarni tayyorlashda, o‘qitishning hozirgi zamon tizimlari va yangi pedagogik texnologiyalari asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Yangi pedagogik texnologiyalarni xislati shundaki, unda qo‘yilgan maqsadlarga erishish kafolatini beruvchi o‘quv jarayoni rejalashtiriladi va amalga oshiriladi. Darhaqiqat, mashg‘ulotlarning muvaffaqiyatli o‘tishining 80% ta’lim jarayonini to‘g‘ri loyihalashtirish, tashkil etish va uni amalga oshirishga bog‘liqdir.

O‘quv jarayonlarini loyihalashtirishda ta’lim mazmunini, ta’lim maqsadi, kutublik materialning tanlash, talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalarini baholashni aniq mezonlarini oldindan ishlab chiqish, mashg‘ulotga ajratilgan vaqt ichida ularni to‘g‘ri amalga oshirish va bir-biri bilan uyg‘unlashuviga e’tiborni qaratish maqsadga muvofiqdir.

Har qanday faoliyat maqsadi – kelajak faoliyat natijasining xayoldagi qiyofasidir. Zamonaviy o‘qitish texnologiyasi maqsadlarga izchil mo‘ljal olishning asos bo‘lib, tezda ushbu borada qaytib keladigan aloqa manbayi hisoblanadi. Bunda o‘quv maqsadlari imkonimiz boricha aniqlashtiriladi.

Zamonaviy pedagogik texnologiya o‘zining pedagogika va boshqa fan yutuqlari bilan bog‘liq xususiy nazariyasiga ega; u birinchi galda o‘quv-tarbiyaviy jarayonni ilmiy asosda qurishga yo‘naltirilgan; o‘qitishning axborotli vositalidan, didaktik materiallardan, faol metodlardan keng foydalanishga asoslangan o‘qituvchi va ta-labalarning birgalikdagi faoliyatiga zamin yaratadi.

Kelajakda ta’lim taraqqiyotining haqqoniy dvigateli sifatida o‘qituvchi faoliyatini yangilashga, ta’lim-tarbiya jarayonini maqbul (optimal) qurishga, talaba

yoshlarda hur fikrlilik, bilimga chanqoqlik, Vatanga sodiqqlik, insonparvarlik tuy-g‘ularini shakllantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Nutqning asosiy xususiyatlari sifatida quyidagilarni belgilash lozim bo‘ladi:

- to‘g‘rilik;
- aniqlik;
- mantiqiylik;
- tozalik;
- ta’sirchanlik;
- maqsadga muvofiqlik.

**Nutqning to‘g‘riliği** nutq madaniyati haqidagi ta’limotning markaziy masalasidir. Madaniy nutqning boshqa barcha kommunikativ sifatlari ayni shu to‘g‘rilik mavjud bo‘lgandagina yuzaga kela oladi. Adabiy til me’yorlariga amal qilinmasdan tuzilgan nutq to‘g‘ri nutq bo‘la olmaydi. O‘zbek adabiy tilida, asosan, quyidagi me’yorlar farqlanadi:

- 1) Leksik (so‘z qo‘llash) me’yor;
- 2) Talaffuz (orfoepik) me’yor;
- 3) So‘z yasalish me’yori;
- 4) Morfologik me’yor;
- 5) Sintaktik me’yor;
- 6) Uslubiy me’yor.

Tabiiyki, adabiy tilning yozma shaklida imlo (orfografik) va tinish belgilari (punktuatsion) me’yorlari ham mavjud.

Nutqning to‘g‘riliği uning adabiy tili me’yorlariga muvofiq kelishidir. Bunda quyidagi me’yorlar hisobga olinadi.:

a) talaffuz me’yorlari:

Unli va undosh tovushlar talaffuzi, so‘z tarkibidagi qo‘sish va yondosh unlilar talaffuzi, tutuq belgili so‘zlar talaffuzi, kishilarning ism-familiyalari, qisqartma otlar, qo‘shma fe’llar, so‘z birikmalari, morfologik ko‘rsatkichlar, so‘z yasovchi forma yasovchi qo‘sishchalar talaffuzlari.

b) morfologik me’yorlar:

Adabiy til dialekt va shevalardan o‘z morfologik me’yorlariga ko‘ra ham farqlanadi. Buni biz adabiy tilda so‘zlarning kelishiklarda turlanishi, fe’llarning tuslanishi, son-miqdor tushunchalarning ifodalanish usullarida, shuningdek, so‘z va so‘z shakllarining yasalish xususiyatlarida ko‘ramiz.

v) sintaktik me’yorlar:

Ega-kesimning mosligi, ikkinchi darajali bo‘laklarning ularga bog‘lanish qonuniyatlarini.

g) imloviy me’yorlar:

Adabiy til yagona va umumxalq yozuv me’yorlariga tayanadi. Bu me’yorlar maxsus ishlangan va kelishilgan imlo qoidalari o‘z ifodasini topadi. Adabiy til imlo qoidalari bu til yozushi, yozma shaklida foydalanuvchi barcha uchun umum-majburiydir. Orfografik me’yorlar va bunga doir imlo qoidalari adabiy til yozma shaklining takomilida belgilangan omildir.

d) lug‘aviy me’yorlar:

Har bir xalq tili o‘sha millat a’zolarining erkin va bemalol fikrlasha olishi uchun yetarli bo‘lgan so‘z boyligiga ega. Bir tilga mansub bo‘lgan bir sheva bu tilning boshqa guruh shevalaridan, jonli so‘zlashuv tili esa adabiy tilda qo‘llanuvchi so‘zlar miqdori, xarakteri, shakli, hatto ma’nosiga ko‘ra farqlanib turadi. Mana shunday xususiyat adabiy til bilan shevalar, jonli so‘zlashuv tili bilan adabiy til doirasida ham mavjuddir. Demak, tildagi barcha so‘zlar adabiy tilda qo‘llanilavermaydi.

**Nutqning to‘g‘riliqi.** Nutqning to‘g‘ri anglanishida mantig‘iy urg‘u, pauza, ohang (intonatsiya) ham alohida ahamiyatga ega. Ular bilan bog‘liq qonuniyatlar ham o‘zbek adabiy talaffuzi me’yorlarini belgilaydi. To‘g‘rilik deganda kommunikativ sifat uchun grammatik to‘g‘rilik asoslarning asosidir. Grammatik to‘g‘rilik esa nutqda grammatik me’yorlarga qat’iy amal qilish orqali namoyon bo‘ladi. Nutqning to‘g‘ri bo‘lishi asosan urg‘u va grammatik me’yorga amal qilishni taqozo qiladi. So‘zlardagi ayrim bo‘g‘inlarning zarb bilan talffuz qilinishi, ya’ni ularga urg‘uning tushishi hamma tillarda ham bir xil xususiyatga ega emas. O‘zbek tilida shunday hodisa kuzatiladi. *Talabalar mehmoni* so‘z birikmasida ham mulohazali

holat mavjud. Bu holat qaratqich kelishigi qo'shimchasining tushirilishi bilan bog'-liq. Qiyoslang: Talabalar mehmoni (kimningdir talabalar mehmoni) – Talabalar-ning mehmoni (kimdir talabalar mehmoni).

*Nutqning aniqligi*. So'zning tildagi ma'nosiga tamomila muvofiq tarzda qo'laniishi, so'zning voqelikdagi o'zi ifodalayotgan narsa-hodisa bilan qat'iy mosligi asosida yuzaga keladigan kommunikativ sifatdir. Aniq nutq malakasining shaklla-nishida tavsiflanayotgan voqelikni bilish, tidagi so'z ma'nolari sistemasini yaxshi anglash, nutq mazmuniga e'tibor bilan qarash hal qiluvchi ahamiyatga molikdir. Ana shunda ifoda uchun eng uyg'un almashtirib bo'lmaydigan aniq so'zni topish mumkin. Nutqni aniq tuza olish uchun, eng avvalo, so'zning leksik ma'nosini to'g'ri tasavvur qilish lozim.

Tadqiqotchilar aniq nutq yaratish uchun so'zlovchidan quyidagilar talab etili-shini qayd qilishgan:

- Tilning sinonimik imkoniyatlarini bilish va sinonimik qatorlardan kerakligini ajratib, nutqda qo'llash;
- Nutqda ishlatiladigan so'zning anglatgan ma'nolarini har tomonlama bilish;
- So'zning ko'p ma'noliligiga jiddiy e'tibor berilishi, ko'p ma'noli so'z nutq-da qo'llanganda uning qaysi ma'no qirrasi ko'zda tutilayotganini aniq tasavvur qilish;
- Fikrning yuzaga chiqishida bu so'zning boshqa ma'no qirralari monelik qi-lish-qilmasligini ko'z oldiga keltirish;
- Omonimlarning xususiyatlarini bilish, chunki ularni bilmaslik aniqlikning buzilishiga olib keladi;
- Paronimlarni bilish, ulardagi tovush yaqinliklariga e'tibor berish;
- Tor muhitda ishlatiladigan, chetdan kirgan kasb-hunarga oid, arxaik, esker-gan, dialiktizm so'zlarning ma'nolarini yaxshi anglagan holda nutiqqa kiritish.

Nutqning aniqligi tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalar bilan ularning nutq-dagi atamasi bo'lgan materiali o'rtasidagi mutanosiblikni taqozo qiladi:

- a) sinonimlardan o'rinali foydalanish;

- b) antonimlardan to‘g‘ri foydalanish;
- c) ko‘chma ma’noli so‘zlarni o‘rinli qo‘llash;
- d) so‘z birikmalarini to‘g‘ri qo‘llash;
- e) iboralarni to‘g‘ri qo‘llash;

O‘qituvchi nutqida atamalar va mutaxassislikka oid leksika asosiy o‘rinni egallaydi.

Fan sifatida o‘zbek tilshunosligi ham boy atamalarga ega. Ularning bir qismi tilshunos olimlarimiz tomonidan ijod qilingan bu bir qismi boshqa tillardan to‘g‘ri yoki kalkalash (nusxa olish) orqali qabul qilingandir. XX asrda xalqaro ilmiy aloqalar nihoyatda ravnaq topdi. Ayni til hodisasi bir necha atama bilan izohlanadigan holatlar nihoyatda ko‘paydi. Aniqlik nutqning muhim fazilatlaridan biri sifatida qadimdan ma’lum. G‘arb mutafakkirlari ham, Sharq olimlari ham aniqliknin nutq sifat-larining birinchi sharti hisoblanganlar. Aristotel “Agar nutq noaniq bo‘lsa, u maqsadga erishmaydi” degan bo‘lsa, Kaykovus: “Ey, farzand, so‘zning yuz va orqa tomonini bilgin. Ularga rioya qilgan, so‘zlaganda ma’noli gapir, notiqlikning alomatidir”. Agar gapirgan vaqtingda so‘zning qanday ma’noga ega ekanligini bilmasang aniqlik nutqning tenbrilarini yaxshilash, diktsiyaga e’tibor berish, tovushlarning past baland tovlanib turishi, unli va undoshlarni talaffuz etish, ohang kabilar. “Nutqning aniqligi so‘zning narsa va hodisalardan aks etgan borliq belgilari bilan qat’iy mos kelinishidir”, - deydi rus tilshunosi V.N.Golovin.

Aniqlik ikki xil bo‘ladi: narsaning aniqligi va tushuncha aniqligi.

*Narsa aniqligi* nutqda aks etgan mavjudlikning narsalar, hodisalar doirasi bilan nusxa mazmunining munosabatida ko‘riladi. Demak, mavjudlik narsalar, hodisalar orqali nutqda aniq aks etgan bo‘lsa, bunday nutq aniq hisoblanadi.

Nutqning har tomonlama to‘g‘rib o‘lishi uchun narsa aniqligining o‘zi yetarli emas. Tushunchaviy aniqlik ham bo‘lishi zarur. A.Qahhor “Men yozilgan sahifani hatto jumlanı ham ustidan tuzata olmayman. Jumla, hatto butun bir sahifaning bir so‘zini o‘chirib, o‘rniga, boshqasini yozish uchun boshqa qog‘ozga o‘sha jumla, hatto sahifani ko‘chirib yozaman. Nutq bilan qilingan mehnat dard va quvonchni yuzaga chiqara oladi” – degan edi.

Aniq nutq yaratish o‘qituvchidan quyidagilarni o‘rganish va ularga amal qilishni talab qiladi:

- a) tilning sinonimik imkoniyatlarini bilish va sinonimik qatorlardan kerakli variantni ajratib nutqda qo‘llash.
- b) Nutqda ishlatiladigan so‘zning otlashgan ma’nolarini har tomonlama bilish; nojiddiy, taxminiy qo‘llashlardan qochish; chunki so‘z qo‘llash nutqni beburd qiladi;
- c) So‘zning ko‘p ma’noliligiga jiddiy e’tibor berish, ko‘p ma’noni so‘z nutqda qo‘llanganda o‘zining qaysi ma’noda ishlatilayotganligini aniq tasavvur qilish, fikr yuzaga chiqishida bu so‘zning boshqa ma’no qirralari mon’elik qilish-qilmasligini ko‘z oldiga keltirish, omonimlarning xususiyatlarini adabiy normadagi ifodalar bilan yetkazishidir.

O‘qituvchining tili hamma vaqt o‘zbek adabiy tili normalarga sodiq qoladi, adabiy tilning go‘zal va ta’sirchanligini o‘zida saqlaydi. Adabiy til ma’lum qo‘shimchalar, grammatik kategoriyalarni qo‘llanilishidagi bir xilligi, barqarorligi bilan umumo‘zbek harakatlarida bo‘ladi. Shevalardan ustun turadi. Uning ustunligini bir tomongan adabiy normalar belgilaydi.

**Nutqning mantiqiyligi** uning asosiy sifatlari – to‘g‘rilik va aniqlik bilan chambarchars bog‘langandir. Chunki, grammatik jihatdan to‘g‘ri tuzilmagan nutq ham fikrni ifoda etish uchun muvaffaqiyatsiz tanlangan leksik birlik ham mantiqning buzilishiga olib kelishi tabiiydir. Mantiqiy izchilikning buzilishi tinglovchi va o‘quvchiga ifodalananayotgan fikrning to‘liq borib yetmasligiga, ba’zan umuman anglashilmasligiga sabab bo‘lishi mumkin. Nutqning shakllantirilishidagi e’tiborsizlik oqibatida ba’zan mantiqsizlik ham yuz beradi. Quyidagi misolda o‘quv das-turi haqida fikr mulohaza yuritsa-da, o‘quv jadvali (dars jadvali misolida) birikmasi noto‘g‘ri ishlatilgan: Shuningdek, umumta’lim maktablarida “Milliy istiqlol g‘oyasi va ma’naviyat asoslari” fani bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini o‘rganish kursi o‘quv jadvaliga kiritilgan (XC., 8.11.02). Ajratilgan birikma noo‘rin ishlatilgan, jumlada g‘alizlik paydo bo‘lgan. Notiq nutqi mantiq qoidalariga muvofiq bo‘lishi uchun quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- nutq aniq, ravshan bo‘lishi kerak;
- nutqda fikr (bayon) izchilligi saqlanishi kerak;
- nutq jarayonida fikriy ziddiyat bo‘lmasligi kerak;
- fikrlar dalillangan bo‘lishi mumkinfikrlar dalillangan bo‘lishi kerak.

*Nutqning tozaligi* deganda unda til elementlarining ishlatalishida adabiy til me’yorlariga amal qilish-qilmaslik tushuniladi. Nutqimizning sofligiga, asosan, quyidagilar ta’sir qiladi:

1. Mahalliy dialekt va shevalarga xos so‘z, ibora, shuningdek, grammatik shakllar, so‘z va so‘z birikmalarining talaffuzi, urg‘usi.
2. O‘rinsiz qo‘llangan chet so‘z va so‘z birikmali.
3. Jargonlar.
4. Vulgarizmlar.
5. Nutqda ortiqcha takrorlanadigan “parazit” so‘zlar.
6. Kanselyarizmlar.

Varvarizm sifatida qaraladigan *nu*, *tak*, *vot*, *sovsem*, *voobshe*, *tolko*, *tolko tak*, *yestestvenno*, *ob’yazatelno*, *konechno*, *uje*, *pochti*, *tak chto*, *znachit*, *kak raz*, *neujeli*, *tem bolee*, *dokument*, *oformit qilmoq*, *organizovat qilmoq*, *prinimat qilmoq*, *razreshenie olmoq*, *podpis qo‘ymoq*, *bo*, *akun*, *soni* kabi so‘z va birikmalarning o‘zbek tilida aynan ekvivalentlari mavjud. Buning ustiga ular adabiy tilimizga kirgan emas. Demak, bu so‘zlar o‘zbek tili uchun me’yor emas. Ammo biz ularni, ijtimoiy muhit ta’siridan bo‘lsa kerak, albatta, farqiga bormasdan ishlataveramiz, nutqimizni nazorat qilmaymiz. Shu tarzda leksik me’yor ham, nutq ham buziladi .

*Parazit* so‘zlar deb ataluvchi leksik birliklar ham til madaniyati uchun yotdir. Ular asosan so‘zlashuv nutqida ko‘p ishlatilib, notiqning o‘z nutqini kuzatib bormasligi, e’tiborsizligi natijasida paydo bo‘ladi va bora-bora odatga aylanib qoladi. Masalan, ayrim kishilar o‘zлari sezmagan holda demak, xo‘sh kabi so‘zlarni qaytaraverishga o‘rganib qolganlar. Masalan, “Yoshlar” telekanalining “So‘z navbati yoshlarga” (28.03.2014, soat 13.50) ko‘rsatuvida qatnashgan 8 nafar ishtirokchilardan biri sabrsizlik haqida qisqacha nutqida *12 marta dedi* so‘zini takrorlagani o‘zi hikoya qilgan mazmunli rivoyatning ta’sirini tushirib yubordi.Tadqiqotlarda

*ifodalilik, obrazlilik, jo 'yalilik* kabi sifatlar ta'sirchanlikni ifodalash nuqtai nazaridan tahlil etilgan. Tabiiyki, har qanday nutqning asosiy maqsadlaridan biri tinglovchi yoki o'quvchi ongiga ta'sir etishdan iborat. Bu maqsadni amalga oshirishda esa nutqning muayyan bir sifati emas, balki barcha kommunikativ sifatlari u yoki bu darajada ishtirok etadi. Zotan, to'g'ri yoki aniq bo'lмаган, boy yoki mantiqiy bo'lмаган, sof yoki jo'yали bo'lмаган nutqning ta'sirchanligi haqida gapirib bo'lмайди. Ifodalilik nutqning tarkibiy tuzilishi va boshqa lisoniy xususiyatlariga ko'ra tinglovchi yoki o'quvchi diqqatini o'ziga jalb qila olishdan iborat kommunikativ sifatidir.

Tinglovchining e'tiborini qozongan nutqgina ta'sirchan nutq hisoblanishi mumkin. Buning uchun, yuqorida ta'kidlanganidek, suhbat mavzusini yaxshi bo'lishdan tashqari, uni bayon etishning aniq rejasi ham bo'lishi zarur. So'zlovchining o'z nutqiga munosabati ham muhim. Shunday bo'lgandagina quruq rasmiyatchiликдан qochish mumkin bo'ladi. Nutq so'zlash amaliyoti sohasidagi mutaxassislar notiq o'z maqsadiga erishishi uchun nutq madaniyati qoidalariga rioya etishi, kerakli o'rinnarda pauza qilishi, "e-e-e", "hm-hm-hm" kabi keraksizlarni hadeb taffafuz qilmasligi, qo'llarini cho'ntakka solmasligi va shu kabilar haqida ko'p yozishadi». Nutqning tinglovchilarga qanday ta'sir qilishida va ularda qanday taassurot qoldirishida notiqning nutqiy jarayon davomida o'zini qanday tuta bilishi, jest va mimikalari, hatto kiyinishi kabi omillarning ham ahamiyati bor. Samimilik, xushmuomalalik, odoblilik, auditoriyaga hurmat bilan qarash kabi fazilatlar nutqning tinglovchilar tomonidan e'tibor bilan tinglanishiga sabab bo'ladi. "Nutq faoliyatida muallif o'z oldiga qo'ygan maqsadni eng aniq, eng to'g'ri, eng yaxshi, eng ta'sirchan, eng tushunarli qilib ifodalaydigan so'zlarni, so'z birikmalarni, gaplarni topishga, tanlashga intiladi. Bu vositalarni yaxlit qilib, maqsadga muvofiqlik deb belgilash mumkin"<sup>6</sup>. Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat. Darslik.- Toshkent, Tafakkur bo'stoni, 2012.- 430 bet.

---

<sup>6</sup> Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat. Darslik.- Toshkent, Tafakkur bo'stoni, 2012.- 430 bet.

## **II bob.**

### **O'QITUVCHI NUTQIGA QO'YILADIGAN TALABLAR**

#### **2.1. Pedagogik faoliyatda o'qituvchi nutq mahoratining tutgan o'rni va ahamiyati**

O'qituvchi o'zbek tilining umumdidaktik printsiplari bilan yaxshi tanish bo'lishi, ham yaxshi bilishi va ta'lif jarayonida unga qat'iy amal qilishi lozim.

O'zbek tili o'qitish metodikasiga bag'ishlangan adabiyotlarda ona tili o'qitishning o'ziga xos prinsiplari xususida turlicha fikrlar bayon qilinadi. Ayniqsa, bu turli-tumanlik printsiplarning nomlanishida, tushunchalarni izohlashda ko'proq ko'zga tashlanadi.

Ona tili o'qitishning o'ziga xos prinsiplari shu tilning o'z tabiatidan kelib chiqadi. Tildan o'rganiladigan bilimlarning manbai o'zbek tilshunosligi fani hisoblanadi. Zotan, tildan beriladigan bilimlarning nazariy asoslari, ularning o'ziga xos xususiyatlari tilshunoslik fanida batafsil bayon etilgan. Ammo tilshunoslik fanida tilni qanday o'rganish kerak, tilda o'zlashtiriladigan bilimlarning hajmi va mundarijasi qanday bo'ladi, degan masalalar o'rganilmaydi. Bular tilshunoslikning vazifasidan holi emas.

Bu savollar bilan metodika shug'ullanadi. Demak, tilni o'qitishning metodik prinsiplari, bir tomonidan o'zbek tilining o'z xususiyatlaridan kelib chiqsa, ikkinchi tomonidan tilni o'zlashtirish psixologiyasiga ko'ra belgilanadi.

Har bir jamiyatda bilimli mutaxassislar, yetuk kadrlar davlatning gullab-yashnashi va rivojlanishishi uchun suv va havodek zarur bo'lgan va ular ma'lum darajada jamiyatning taraqqiyotini belgilaganlar.

O'zbekistonda ham keyingi paytlarda ta'lif sohasiga, malakali kadrlar sohasiga alohida e'tibor berilayotgani beziz emas. Davlatimiz tomonidan qabul qilinayotgan qaror va qonunlarida ham buning yorqin ifodasini yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Albatta, chuqur bilim olgan, yaxshi tarbiya ko'rgan komil insonni, kelajagimiz egasini voyaga yetkazish uchun "Ta'lif to'g'risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qabul qilingandan so'ng respublikamiz butun ta'lif

tizimini tubdan isloh qilish, barkamol avlodni voyaga yetkazishning aniq strategik yo‘nalishlariga ega bo‘ldi.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” da ta’lim tizimlarini, uning mazmunini boshaqarish va rivojlantirishni ta’minlashni tubdan isloh qilish yo‘llari ko‘rsatiladi.

Demak, ta’lim-bu murakkab va mas’uliyatli jarayon. Bu jarayonda o‘quvchining savodxonligi alohida o‘rin tutadi. Chunki savodxonlik kishining bilimlilik va madaniyatligining muhim belgilaridan hisoblanadi.

Kishining hayotiga qarab, uning bilimidan tashqari dunyoqarashi va kayfiyatini ham aniqlaganlar.

Tarixga nazar tashlasak, savodli va xushxat kishilar qadimdan el nazari va hurmatida bo‘lganligiga guvoh bo‘lamiz. Munis, Ogahiy kabi ziyolilarning hayoti va ijtimoiy mavqeい ham fikrlarimizni dalillaydi.

Kishining savodxonligi uning bilimi doirasida shunchalik o‘rin tutar ekan, savodxonlik masalasining tilshunoslikdagi o‘rni muammosiga ham to‘xtalib o‘tishimiz kerak.

Ma’lumki, dars o‘quv tarbiya ishlarini tashkil etishning yetakchi shakli hisoblanadi. Ona tili mashg‘ulotlarini to‘g‘ri tashkil etish, dars uchun ajratilgan vaqtdan unumli foydalanish, darslarning samaradorligini oshirishda muhim omillardandir.

Maktabda ona tili o‘qitishning asosiy maqsadi o‘quvchilarda nutq madaniyatini shallantirish bo‘lib, bu o‘quvchilarning o‘zbek tilidan bilimlar sistemasini egalashlari, ularda turli nutq ko‘nikmalarini hosil qilish, ijodiy qobiliyatlarini taraqqiy ettirish bilan harakterlanadi. Grammatik bilim, ko‘nikma va ijodiy faoliyat nutq madaniyatining tarkibiy qismi hisoblanadi. Nutq madaniyati tarkibiy qismlariga ko‘ra quyidagicha uch xil vazifa belgilanadi:

1. O‘zbek tilidan nazariy bilimlarni o‘zlashtirish; bilimlarni o‘rganish, mustahkamlash, takrorlash, sistemalashtirish, tekshirish. Bular ona tili o‘qitishning didaktik vazifalari sanaladi.

2. Nutq ko‘nikmalari (orfoepik, orfografik, stilistik, punktuatsion) turli grammatik mashqlar ustida ishslash vositasida hosil bo‘ladi. bular malaka va ko‘nikmalarni shakllantirishga doir vazifaldir.

3. Til faktlari asosida xulosalar chiqarish, turli manbalardan o‘rganilgan mavzularga oid faktlar to‘plash, bilimlarni yangi sharoitlarga tadbiq etish natijasida o‘quvchilarda ijodiy faoliyat tarkib topadi. Ijodiy faoliyatni takomillashtirish maqsadida o‘tkaziladigan ishlar ijodiy vazifalar hisoblanadi<sup>7</sup>.

Dars-bu ijodiy jarayon. Darslarda o‘quvchilarning ijodiy faoliyati qancha taraqqiy ettirilsa, ular o‘z oldiga qo‘ygan aqliy vazifalarni shuncha qiynalmasdan bajaradilar. Bola topshiriqlarni o‘rganib borgan sari unda fikr yuritish qobiliyati shakllana boradi.

Darslarni ijodiy tashkil etish vaqtdan unumli foydalanish, mashg‘ulotlarni qiziqarli tarzda tashkil etish o‘qituvchida zo‘r mahorat talab etadi.

Dars inson tafakkuri durdonalarini fan texnika yutuqlarini, milliy madaniyatini yoshlarga singdirishning asosiy shaklidir.

Dars ta’limning boshqa shakllaridan o‘zining tashqi va ichki xususiyatlariga ko‘ra farq qiladi. O‘quvchilarning doimiy huquqi, qat’iy rejim va dars jadvali, mashg‘ulotlarni ma’lum bolalarda o‘tkazish kabilar tashqi xususiyatlariga darsning maqsadi, o‘quvchilarning bilim olishga qiziqishlari, ta’lim materialini xis qilishga, anglash, tushunish kabilar ichki xususiyatlarga kiradi. Dars ana shu ikki xil xususiyatning o‘zaro uyg‘unlashuvi zaminida tashkil etiladi.

Dars jadvali yuzaga kelishi uchun quyidagi shartlar taqozo etiladi:

1. Dars bo‘lishi uchun muayyan yoshdagi o‘quvchilar kontingenti bo‘lishi zarur.
2. Dars maxsus tayyorgarlikka ega bo‘lgan mutaxassis pedagog-o‘qituvchi bo‘lishini talab qiladi.
3. Dars qat’iy jadval bo‘lishi taqozo etadi.
4. Dars qat’iy rejim, ya’ni belgilangan vaqt asosida o‘tkazilishini talab qiladi.

---

<sup>7</sup> Розиков О. Ўзбек тилидан дарс типлари. Т. Ўзбекистон, 1976.- Б.3

Ona tili mashg‘ulotlarini ta’lim jarayoni maqsadiga ko‘ra tashkil qilish o‘z-lashtirish jarayonini falsafiy, didaktik, psixologik nuqtai nazardan yoritish masalasi bilan uzviy bog‘langan.

O‘quvchi ijtimoiy individ hisoblanadi. U ta’lim jarayonida jamiyat tomonidani to‘plangan bilimlarni o‘zlashtiradi. O‘quv predmetining mantiqiy ilmiy terminlar, tushunchalar sistemasi o‘quvchilar bilim faoliyati mazmunini tashkil etadi. Ta’lim mazmuni ta’lim maqsadiga ko‘ra belgilanadi. Ta’lim mazmuni o‘quvchi va o‘qituvchi faoliyatining mazmunini ham belgilaydi.

Ta’lim mazmuni masalasi pedagogika tarixida eng qadimiy va ayni paytda eng dolzarb masalalardan biridir. Pedagog olimlar jamiyat taraqqiyotining barcha davrlarida nimani o‘qish kerak, degan savolga javob izlash bilan shug‘ullandilar va hali-hamon bu savolga to‘liq, har tomonlama mukammal javobni topa olganlaricha yo‘q. Ta’lim mazmuni bo‘yicha berilgan va berilayotgan barcha ma’lumotlar jamiyat va taraqqiyot uchun nisbatligicha qolaveradi. Chunki odamlar yashaydigan jamiyat doimiy rivojlanishda, takomillashishida davom etadi va ijtimoiy taraqqiyot qonunlari asosida beto‘xtov ilgarilab boradi<sup>8</sup>.

Ta’lim mazmuni davlat va jamiyat talablariga ko‘ra, pedagogik texnologiya-larning eng so‘nggi yutuqlari asosida belgilanadi, shakllanadi.

Ta’lim mazmunini shakllantirish zamonaviy pedagogikada to‘rtta muhim tarbiyaviy qismlar hisobiga amalga oshiriladi:

1. O‘quvchilar egallashi zarur bo‘lgan bilimlar tizimi (filologiya faktlari, tushunchalar, qoidalar, ta’riiflar tizimi);
2. Tanlangan ilmiy nazariy bilimlarga muvofiq keladigan Amaliy ko‘nikma va malakalar tizimi;
3. O‘quvchilarni ijodiy faoliyat usullariga o‘rgatish; faoliyat, qayta xotiralash, qisman izlanuvchanlik faoliyat darajasida bo‘lishi mumkin.

Qayta xotiralash faoliyati-o‘qituvchi tomonidan ko‘rsatilgan yoki darslikda berilgan namunaga qarab mashq bajarish faoliyatidir. Bu esa o‘rganuvchining faollik darajasini chegaralaydi. Qisman izlanuvchanlik faoliyatida o‘quvchi yo‘nal-

<sup>8</sup> Тўхлиев Б., Шамсиева М., Зиядова Т. –Ўзбек тили ўқитиши методикаси.-Т. Ўзбекистон, 2006. - Б.10.

tirilgan topshiriqlar yordamida til hodisalarining o‘xshash va farqli tomonlari ustida o‘ylashi, uni topish, avvalgi bilimlarni qisman noma’lum sharoitlarda qo‘llash lozim.

4. O‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar tizimi. Ta’lim mazmunining bu tarkibiy qismlari chiziqsimon birin-ketinlikda joylashgan hodisalar emas, balki aylanasmimon yaxlitlik bo‘lib, bu aylananing boshlanishi va tugallanishi nuqtasi birinchi va to‘rtinchi qismlari aylana doirasi esa ijodiy-amaliy ko‘nikmalarni tashkil etadi<sup>9</sup>.

Ona tili o‘qitish mazmuni fonetika, lektsikologiya, grammatika, (morfologiya va sintaksis), uslubiyat, to‘g‘ri talaffuz, to‘g‘ri yozish, so‘z tanlash va gap tuzish; ijodiy fikrlash, fikrni to‘g‘ri, aniq ifodalash, ifodali o‘qish, matn ustida ishslash va matn yaratish faoliyatlarini qamrab oladi.

“O‘quvchi – ta’lim – o‘qituvchi” tizimi yangilangan ta’lim mazmunida yetakchi omildir. O‘quvchi so‘z boyligini oshirish va boyishining xilma-xil usullarini bilishii, til imkoniyatlaridan unumli foydalanishni o‘rganish, egallangan nutqiy ko‘nikma va malakalarni mustahkamlash, rivojlanishtirish, takomillashtirish, ularni amaliyotga tadbiq etish yuzasidan izchil ma’lumotlarga ega bo‘lishi kerak.

Maktabda ona tili o‘qitishning asosiy maqsadi keng ma’noda savodli kishilar yetishtirish, o‘quvchilarni ishlab chiqarish, hamda ijtimoiy hayotdagi faol va ijodiy faoliyatları uchun zarur bo‘lgan darajada og‘zaki va yozma nutqdan foydalanish malakalari bilan qurollantirishdan iboratdir. Demak, o‘quvchilarning nutq malakalarini mustahkamlash va til sezgirligini takomillashtirishga erishish maktabda ona tili o‘qitishning maqsadlaridan kelib chiqadi. O‘quvchilarni ona tilini qonun-qoidalari bilan qurollantirish, ularni til materiallari bilan ishslashga o‘rgatish nutq o‘stirishga xizmat qilmog‘i lozim.

O‘zbek tili mustaqil O‘zbekiston Respublikasining davlat tili deb qonunlashtirilgandan keyin xalq ta’limi oldiga Respublika taraqqiyoti uchun xizmat qiladigan tadbirdor va ijodkor insonni tayyorlash masalasi qo‘yiladi.

---

<sup>9</sup> Фуломов А. Она тили ўқитиши принциплари ва методлари. –Т. Ўзбекистон, 1997.- Б.37.

Ona tili mashg‘ulotlarida yoshlarni erkin va mustaqil tafakkur egasi, ijodiy izlanuvchan, milliy g‘oya va ajdodlarimiz an’analarini e’zozlaydigan, vatanparvar insonlar qilib tarbiyalashda ona tili o‘qituvchisining mas’uliyati katta.

Darsga tayyorlanish jarayoni o‘qituvchi pedagogik mahoratining shakllanishida muhim o‘rin tutadi.

Darsga tayyorlanish tartibi quyidagicha bo‘lishi maqsadga muvofiq:

- Darsni zamonaviy pedagogik texnologiya asosida tashkil qilish, maqsad va vazifani to‘g‘ri belgilash;
- O‘quvchilarga milliy mafkura va istiqlol g‘oyalarini singdirish;
- Dars mavzusini mukammal yoritishga xizmat qiladigan zamonaviy o‘quv texnika vositalaridan unumli foydalanish;
- O‘quvchini til hodisalarini kuzatish, farqlash va sharhlashga yo‘naltiradigan kompyuter dasturlari, multimedya, kodoskop xizmatidan foydalanishga o‘rgatish;
- O‘quvchining erkin, mustaqil va ijodiy fikrashi uchun qulay sharoit va imko-niyatlar yaratib berish;
- O‘quv dasturlari, DTS talablarini to‘liq va mukammal amalga oshirish;
- Egallangan bilim, ko‘nikma va malakalar darajasini muntazam kuzatib bori shva o‘quvchini obyektiv baholash;
- O‘rganilgan mavzuni takrorlash, mustahkamlash va umumlashtirishga mo‘ljallangan kommunikativ jadvallardan muntazam foydalanish;
- Har bir mashg‘ulot so‘ngida o‘quvchi imkoniyatiga qarab, uy vazifasi berish va uni to‘g‘ri bajarganini nazorat qilish;
- O‘quvchi nutqi yangi paydo bo‘lgan so‘zlar bilan boyitish;
- Nutqiy madaniyat me’yorlarini singdirish;
- O‘quvchilar qiyosiy tasnif, alohidalash va guruhlash ko‘nikmalarini shaklantirish, matn tahlili va matn yaratish bilan muntazam shug‘ullantirish;

— Muomala-muloqotning sharqona odob va axloqqa asoslangan an’aviy usul-lardan samarali foydalanish<sup>10</sup>.

Ayniqsa, yosh o‘quvchilar ijodkor, izlanuvchan murabbiylar tajribasini o‘rganish va amaliyotga joriy etishda faqat tahlid qilmasdan, o‘z o‘quvchilarining yoshi, o‘zlashtirish darajasi, sinf jamoasining tayyorgarligiga qarab darsni tashkil etish;

- O‘qitish printsiplari vositalariga to‘g‘ri amal qilish;
- Ona tilidan bilimlar tizimining bosqichma-bosqich ketma-ketlikda va bo‘limlararo va fanlararo bog‘lanishda bo‘lishiga e’tibor berilishi zarur.

“Adabiyot o‘qituvchisining vazifasi mulohazakor, fikrlaydigan, badiiy matn qariga kirishga qobil hamda asarning estetik qimmatini anglab yetadigan yangi kitobxonni shakllantirishdan iboratdir”<sup>11</sup>.

---

<sup>10</sup> Тўхлиев Б., Шамсиева М., Зиядова Т. –Ўзбек тили ўқитиши методикаси.-Т. Ўзбекистон, 2006 Б.46

<sup>11</sup> Сидорова М.Л. Система обучения анализу художественного текста на уроках литературы в средних классах общеобразовательной школы . – // [http://literary.ru/literary.ru/readme.php?subaction=showfull&id=1205415093&archive=1206184559&start\\_from=&ucat=&](http://literary.ru/literary.ru/readme.php?subaction=showfull&id=1205415093&archive=1206184559&start_from=&ucat=&)

## **2.2 Zamonaviy ta’lim jarayonida ona tili o‘qituvchisi nutqiga qo‘yiladigan talablar mazmuni**

O‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi yurtimizda davlat ishlarining, o‘qish-o‘qitish, ta’lim-tarbiya, targ‘ibot-tashviqot ishlarining shu tilda olib borilishi uchun juda katta imkoniyat yaratdi. Tilga bo‘lgan munosabat tubdan o‘zgardi, uning barcha imkoniyatlarini o‘rganish ishlari keng ko‘lamda olib borilyapti. Lekin, shuni ham eslash joizki, tilning ijtimoiy vazifasini bajarilish darajasini belgilovchi omillardan biri bo‘lmish nutq madaniyati yetarli taraqqiy etmaganligi achinarli bir holdir. Shu bois nutq madaniyati sohasini chuqurroq o‘rganish oldimizga qo‘ylgan muhim masalalardan biri hisoblanadi. Chunki, nutqimizda uchrab turadigan nuqson va kamchiliklarni bartaraf qilish, nutq madaniyatini har qachongidan ham yaxshiroq rivojlantirish umumdavlat ahamiyatiga ega bo‘lgan siyosiy va ijtimoiy masaladir. Bu masala bilan shug‘ullanish ishiga faqat tilshunoslargina emas, balki jumhuriyatimizda istiqomat qiluvchi barcha soha vakillari e’tibor berishlari maqsadga muvofiqdir. Shunisi aniqki, nutq madaniyati umuminson madaniyatining tarkibiy qismi bo‘lib, kishilarni yuksak madaniyatli bo‘lishlarini belgilaydi.

Bu masalaning bir tomoni bo‘lsa, ikkinchidan, xalqaro hayotda ikki qaramaqarshi ijtimoiy guruh o‘rtasida mafkuraviy kurash nihoyatda keskinlashgan bir davrda yashamoqdamiz. Bu narsa ham mafkuraviy kurashning asosiy quroli bo‘lgan tilning har qachongidan ham o‘tkir va keskin bo‘lishini taqazo etadi. Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov ham bunga alohida e’tibor berib bunday degan edilar: “G‘oyaga qarshi faqat g‘oya, fikrga qarshi faqat fikr, jaholatga qarshi faqat ma’rifat bilan bahsga kirisha olishish lozim”: “...Eng dahshatlisi fikr qaramligi, tafakkur qulligi”... “...Maktabda bolalar mustaqil fikr yuritishga o‘rgatiladimi, aminmanki o‘rgatilmaydi”. Mabodo, biror o‘quvchi o‘qituvchiga e’tiroz bildirsa, ertaga hech kim havas qilmaydigan ahvolga tushib qoladi. Maktabdagagi jarayonda o‘qituvchi hukmron. U boladan faqat o‘zi tushuntirayotgan narsani tushunib olishini talab qiladi. Prinsip ham tayyor: mening aytganim-aytgan, deganim-degan”.

Ta’lim mazmuni masalasi pedagogika tarixida eng qadimiy va ayni paytda eng dolzarb masalalardan biridir. Pedagog olimlar jamiyat taraqqiyotining barcha davrlarida nimani o‘qish kerak, degan savolga javob izlash bilan shug‘llandilar va hali-hamon bu savolga to‘liq, har tomonlama mukammal javobni topa olganlaricha yo‘q. Ta’lim mazmuni bo‘yicha berilgan va berilayotgan barcha ma’lumotlar jamiyat va taraqqiyot uchun nisbatligicha qolaveradi. Chunki odamlar yashaydigan jamiyat doimiy rivojlanishda, takomillashishida davom etadi va ijtimoiy taraqqiyot qonunlari asosida beto‘xtov ilgarilab boradi<sup>12</sup>.

Ta’lim mazmuni davlat va jamiyat talablariga ko‘ra, pedagogik texnologiyalarning eng so‘nggi yutuqlari asosida belgilanadi, shakllanadi.

Ta’lim mazmunini shakllantirish zamonaviy ta’limda to‘rtta muhim tarbiyaviy qismlar hisobiga amalga oshiriladi:

1. O‘quvchilar egallashi zarur bo‘lgan bilimlar tizimi (filologiya faktlari, tu-shunchalar, qoidalar, ta’riiflar tizimi);
2. Tanlangan ilmiy nazariy bilimlarga muvofiq keladigan amaliy ko‘nikma va malakalar tizimi;
3. O‘quvchilarni ijodiy faoliyat usullariga o‘rgatish; faoliyat, qayta xotiralash, qisman izlanuvchanlik faoliyat darajasida bo‘lishi mumkin.

Qayta xotiralash faoliyati-o‘qituvchi tomonidan ko‘rsatilgan yoki darslikda berilgan namunaga qarab mashq bajarish faoliyatidir. Bu esa o‘rganuvchining faollik darajasini chegaralaydi.

Qisman izlanuvchanlik faoliyatida o‘quvchi yo‘naltirilgan topshiriqlar yordamida til hodisalarining o‘xhash va farqli tomonlari ustida o‘ylashi, uni topish, avvalgi bilimlarni qisman noma’lum sharoitlarda qo‘llash lozim.

4. O‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar tizimi. Ta’lim mazmunining bu tarkibiy qismlari chiziqsimon birin-ketinlikda joylashgan hodisalar emas, balki aylanasimon yaxlitlik bo‘lib, bu aylananing boshlanishi va tugalla-

---

<sup>12</sup> Тўхлиев Б., Шамсиева М., Зиядова Т. –Ўзбек тили ўқитиши методикаси.-Т. Ўзбекистон, 2006. - Б.10.

nishi nuqtasi birinchi va to‘rtinchi qismlari aylana doirasi esa ijodiy-amaliy ko‘nik-malarni tashkil etadi<sup>13</sup>.

Ona tili o‘qitish mazmuni fonetika, lektsikologiya, grammatika, (morfologiya va sintaksis), uslubiyat, to‘g‘ri talaffuz, to‘g‘ri yozish, so‘z tanlash va gap tuzish; ijodiy fikrlash, fikrni to‘g‘ri, aniq ifodalash, ifodali o‘qish, matn ustida ishlash va matn yaratish faoliyatlarini qamrab oladi.

«O‘quvchi-ta’lim-o‘quvvchi» tizimi yangilangan ta’lim mazmunida yetakchi omildir. O‘quvchi so‘z boyligini oshirish va boyishining xilma-xil usullarini bili-shi, til imkoniyatlaridan unumli foydalanishni o‘rganish, egallangan nutqiy ko‘nik-ma va malakalarini mustahkamlash, rivojlanishtirish, takomillashtirish, ularni ama-liyotga tadbiq etish yuzasidan izchil ma’lumotlarga ega bo‘lishi kerak.

Maktabda ona tili o‘qitishning asosiy maqsadi keng ma’noda savodli kishilar yetishtirish, o‘quvchilarni ishlab chiqarish, hamda ijtimoiy hayotdagi faol va ijo-diy faoliyatları uchun zarur bo‘lgan darajada og‘zaki va yozma nutqdan foydala-nish malakalari bilan qurollantirishdan iboratdir. Demak, o‘quvchilarning nutq malakalarini mustahkamlash va til sezgirligini takomillashtirishga erishish maktab-da ona tili o‘qitishning maqsadlaridan kelib chiqadi. O‘quvchilarni ona tilini qo-nun-qoidalari bilan qurollantirish, ularni til materiallari bilan ishlashga o‘rgatish nutq o‘stirishga xizmat qilmog‘i lozim.

Nutq madaniyatini singdirish maktabda o‘quvvchining bosh vazifasidir. U birinchi soatdan boshlab to oxirgi mashg‘ulotgacha o‘quvchilarda nutq madaniyati (tadbirkorligi)ni tarbiyalashga xizmat qilishi kerak.

Akademik A.Hojiyev o‘zining “Lingvistik terminlarning izohli lug‘ati” kitobi- bida nutq madaniyati terminiga quyidagicha ta’rif beradi.<sup>14</sup>

1. Filologiya fanining jamiyat taraqqiyotidagi tildan foydalanish jarayonini o‘rganish, kishilar orasidagi aloqa vositasi bo‘lgan tildan foydalanish qoidalari-nilmiy asosda belgilash bilan shug‘ullanuvchi bo‘limi.

---

<sup>13</sup> Гуломов А. Она тили ўқитиш принциплари ва методлари. –Т. Шарқ, 1997. Б.37.

<sup>14</sup> Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug‘ati. –T. Fan, 2009. B. 38

2. Nutqning normativligi, uning ma'lum tarixiy taraqqiyot davrida shu tilda so'zlashuvchi jamoa tomonidan qo'yiladigan talablarga mosligi: talaffuz, urg'u, so'z qo'llash, shakl yasalishi, so'z birikmasi va gap tuzish meyorlariga amal qilish.

Nutqning normativligi fikrning aniq, ravshan va sofligini ham o'z ichiga ola-di. Adabiy til haqida gap borganda avvalo adabiy til – xalq tilining, milliy til-ningoliy shakli deyilgan ta'rifga duch kelamiz. Adabiy tilning oliv shaklligi bu tilning o'ziga xosligida, uning o'ziga xos belgilari va vazifalarida ko'rindi. Ada-biy til xalqtili negizida yuzaga keladi. Adabiy tilning paydo bo'lishi va uni yara-tishdan maqsad umumxalq ommaviy aloqa vositasini yaratishdir. Adabiy tildan rasmiydavlat tili sifatida foydalanish bu tilning ijtimoiy-siyosiy sohalar tili, rasmiymuomala va yozishmalar tili, idoraviy ishlar va hujjatlar tili, diplomatik alo-qalartili, radio va televideniya tili, og'zaki targ'ibot va tashviqot tili, ilmiy uslublar tili, badiiy adabiyot va sahna tili, maorif, madaniyat tili kabi ko'p yo'naliishlarda rivoj topishi uchun yo'l ochadi.

Adabiy til ijtimoiy-siyosiy va ilmiy-madaniy hayotning barcha sohalarida aloqa quroli darajasiga ko'tariladi. Bu hol adabiy tilni madaniyat vasivilizatsi-yaning vositachisiga, bunga doir tushuncha va tasavvurlarni ifodalovchi, o'zida saqllovchi va keyingi nasllarga etkazuvchi qurolda aylantiradi. Kishilardan nutq madaniyatini, ya'ni to'g'ri so'zlash va yozishni talabqilish uchun mana shunday so'zlash va yozishga vosita bo'la oluvchi qurolni belgilash lozim bo'ladi. Bunday qurod adabiy tildir. Adabiy til nutq madaniyatining to'g'ri so'zlash va yozishning o'ichovi, mezonidir. Ammaadabiy til tayyor holda qayerdandir paydo bo'lgan, birdan tayyor holda osmondantushgan hodisa emas. U aslida nutq madaniyatining tarkibiy qismi, o'zi hammadaniylikka intiluvchi hodisadir. Shuning uchun ham masalan, "Pragalingistik to'garagi" deb yuritiluvchi ilmiy matabning vakillari bo'lmish tilshunoslar nutqmadaniyati tushunchasini til madaniyati, adabiy til ma-daniyati deb nomlashadi.

Ular nutq madaniyati deyilganda avvalo adabiy til madaniyatini tushunishadi: "Adabiy til madaniyati" deganda biz adabiy tilni ongli ravishda qayta ishslashni tu-shunamiz.

Adabiy til madaniyati uchta hodisa (tushuncha)ni o‘z ichiga qamraydi:

- 1) adabiy tilni ongli ishlash (normalash);
- 2) adabiy tilning ishlangan, ya’ni madaniylashgan holati;
- 3) madaniy adabiy til normalaridagi ba’zi holatlarni yanada qayta ishlash va takomillashtirish.

Nutq tuzish qoidalari quyidagi tartibda bo‘ladi:

- a) tilning sinonimik imkoniyatlarini bilish va sinonimik qatoridan kerakli variantni ajratib nutqda qo‘llash;
- b) nutqda ishlatiladigan so‘zning anglatgan ma’nolarini har tomonlama bilish, noijodiy taxminiy qo‘llashlardan qochish, chunki betayn so‘z qo‘llash nutqni be-burd qiladi;
- v) omonimlarning xususiyatlarini bilish, chunki ularni bilmaslik aniqlikning buzilishiga olib keladi.
- d) paronimlarni bilish ulardagi tovush yaqinliklariga e’tibor berish.

**O‘qituvchi nutqning aniqligi** – bu so‘zning o‘zi ifodalayotgan voqelikka mutlaqo mos va muvofiq kelishidir. Aniqlik nutqning muhim fazilatlaridan biri sifatida qadimdan ma’lum. G‘arb mutafakkirlari ham, Sharq olimlari ham aniqlikni nutqsi-fatlarining birinchi sharti deb hisoblaganlar. Arastu: “Agar nutq noaniq bo‘lsa, maqsadga erishmaydi”, - degan bo‘lsa, Kaykovus: “Ey farzand, so‘zning yuz vaorqa to-monini bilgil, ularga rioya qilgil, so‘zlaganda ma’noli gapir, bu notiqlikning alomatidir. Agar gapirgan vaqtingda so‘zning qanday ma’noga ega ekanligini bilmasang qushga o‘xshaysan...” deydi.<sup>15</sup>

**O‘qituvchi nutqning mantiqiyligi** – uning asosiy sifatlari to‘g‘rilik va aniqlik bilan chambarchas bog‘langandir. Chunki grammatik jihatdan to‘g‘ri tuzilmagan nutqham, fikrni ifodalash uchun muvaffaqiyatsiz tanlangan lug‘aviy birlik ham mantiqning buzilishiga olib kelishi tabiiydir. Mantiqiy izchillikning buzilishi tinglovchi va o‘quvchiga ifodalanayotgan fikrning to‘liq borib etmasligi, ba’zanumu-man anglashilmasligiga olib keladi. Nutqni tuzishdagi e’tiborsizlik natijasida ba’zan, hatto, mantiqsizlik yuz beradi. Tushuncha mantiqiyligi alohida

<sup>15</sup>Mahmudov N. M. O‘qituvchi nutq madaniyati. Darslik. – T.: O‘zb. Milliy kutubxonasi, 2007. – B.185 .

olingan matnda fikriy ketma-ketlik, mantiqiy izchilllik bo‘lishini taqozo qiladi. Ammo, bu talabni nutqiy jarayonning hamma ko‘rinishlarida ham o‘rtaga qo‘yib bo‘lmaydi. Masalan: vazifaviylik uslublarida, xususan ilmiy va badiiy nutq uslublarida bu talabga qanday amal qilinishini olib ko‘raylik. Ilmiy uslubda yozilgan asarlar yaxlit bir tuzilishga ega. Unda kirish, asosiy qism va xulosa mavjud bo‘lib, ular yagona bir xalqaga birlashadi. Matnda bayon qilinayotgan fikrlar qat’iy izchilllikda bayon qilinadi. Badiiy nutq tuzilishi esa, bir oz boshqacha. Aytaylik, fikrlar bir maromda bayon etib kelindi-yu, birdaniga uzilish yuz beradi va endi boshqa voqealar hikoya qilinib ketiladi. Bu narsa go‘yo mantiqiy izchillikka putur etkazganday ko‘rinsada, aslida unday emas. Badiiy asarlarda, xususan, qissa, roman kabi janrlardagi keng planlilik, tasvir qurilishini ana shunday tuzishni taqozo qiladi. Mantiqan putur etmaganligi bunday asarlarning oxirida ma’lum bo‘ladi.

Xulosa qilganimizda, nutqning matiqiyligi deganda, yaxlit bir sistema asosida tuzilgan, fikrlar rivoji izchil bo‘lgan, har bir so‘z, ibora aniq maqsadga muvofiq ravishda ishlatiladigan nutqni tushunamiz.

**O‘qituvchi nutqning tozaligi.** Nutqning tozaligi deganda, eng avvalo, uning adabiy tilning lisoniy normasiga muvofiq kelish kelmasligi tushuniladi. Darha-qiqat, yaxshi, ideal nutq hozirgi o‘zbek adabiy tili talablariga mos holda tuzilgan bo‘lishi,turli til, ayri adabiy til unsurlaridan xoli bo‘lishi kerak. Bu masalaning lisoniy tomoni bo‘lib, nutqiy tozalikning nolingvistik jihatlari ham undan kam bo‘lmagan ahamiyatga ega.

Nutqimizning toza bo‘lishiga halaqit berayotgan lisoniy unsurlar, asosan, dialek-tizmlar va varvarizmlardir. To‘g‘ri, ular tilimizda ishlatilishi kerak, busiz bo‘lmaydi. Chunki, badiiy adabiyot tilida dialektizm va varvarizmlar bilan ma’lum badiiy-estetik vazifani bajarishi, muallifning ma’lum g‘oyasini, niyatini amalgaloshirishga xizmat qilishi mumkin. Aytaylik, milliy kaloritni bermoqchi yoki asar qahramonining qayerlik ekanligiga ishora qilishda dialektizm va varvarizmlarga murojaat qilishi, hatto, zarurdir. Masalan: “Yoshulli, saning qizing bundagatirilmagan. Ova, yoshulli. San manglayi qara batkirdor, na sababda mundoq yomon so‘zlarni elga tarqatding” (Mirmuxsin). Ushbu misolda dialektizmlarhududiy

kaloritni berishga xizmat qilgani kabi quyidagi misolda varvarizmlar – chet so‘zlar xarakter yaratishda yozuvchiga ko‘maklashgan. “Dubora” yana bordibir ishga shul, (so‘kib-net, - dedi, kelma durrak, poshul!). Parazit so‘zlar deb ataluvchi lug‘aviy birliklar ham o‘qituvchi til madaniyati uchun yotdir. Ular, asosan, so‘zlashuv nutqida ko‘p ishlatilib, o‘qituvchining o‘z nutqini kuzatib bormasligi, e’tiborsizligi natijasida paydo bo‘ladi va bora-bora odatgaaylanib qoladi. Masalan: ayrim kishilar o‘zlari sezmagan holda demak, xo‘sh kabi so‘zlarni qaytaraverishga o‘rganib qolganlar. “Bir olimning bir soatli nutqida, -deb yozadi A.Axmedov – “o‘rtoqlar” so‘zi 101 marta, “ya’ni” so‘zi 7 marta, “demak” so‘zi 60 marta takrorlanganligining guvohi bo‘lamiz. Qarang, bir soatliknutqda 24 ta ortiqcha, “bekorchi” so‘z ishlatilgan”<sup>16</sup>.

**O‘qituvchi nutqning ta’sirchanligi.** Nutqning ta’sirchanligi deganda, asosan, og‘zaki nutq jarayoni nazarda tutilgan va shuning uchun uning tinglovchi tomonidan qabul qilinishidagi ruxiy vaziyatni e’tiborga olish ham muhimdir. Ya’ni, notiqtinglovchilarni hisobga olishi kishilarning bilim darajasidan tortib, hatto yoshigagacha, o‘z nutqining tinglovchilar eshitayotgan paytdagi kayfiyati-gacha kuzatib turishi, o‘z nutqining tinglovchilar tomonidan qanday qabul qilayotganini nazorat qilishi lozim bo‘ladi. Professional bilimga ega bo‘lgan kishilar oldida jo‘n, sodda tilda gapirish maqsadga muvofiq bo‘limgani kabi, oddiy, etarli darajadagi ma’lumotga ega bo‘limgan tinglovchilar oldida ham ilmiy va rasmiy tilda gapirishga harakat qilish kerak emas. Xullas, notiqdan vaziyatga qarab ish tutish talab qilinadi va ifodalamoqchi bo‘lgan fikrni to‘laligicha tinglovchilarga yetkazishga harakat qilish vazifa qilib qo‘yiladi. Xo‘sh, ta’sirchan nutq deganda qanday nutqni tushunmoq kerak? Unga B.N.Golovin shunday ta’rif beradi: “Ta’sirchan nutq deb nutq qurilishining tinglovchi va o‘quvchi e’tibori vaqiziqishini qozonadigan xususiyatlariga aytildi, o‘z navbatida shu xususiyatlarga ega bo‘lgan nutq ta’sirchan sanaladi”. O‘quvchilar tushuna oladigan tilda gapirish, ularni ishontira olish o‘quvchilar oldiga qo‘yiladigan asosiy shartlardan hisoblanadi. Buning uchun esa, yuqoridaaytilganidek, mavzuni yaxshi bilishdan tashqari, uni bayon etishning aniq

<sup>16</sup>Axmedov A. Til boyligi. – T. Ma’naviyat, 2008. 27-bet.

belgilangan rejasi bo‘lishi kerak. Nutqdagi fikrlarni birinchi va ikkinchi darajali tarzda tuzib, ularni o‘zaro bog‘lab, tinglovchilarga avval nutq rejasini tanishtirib, gapni bog‘lash lozim. Vaqt ni hisobga olish notiqlik fazilatlaridandir. Chunki so‘z-lash muddati oldin e’lon qilinib, shunga rioya qilinsa, agar iloji bo‘lsa, sal oldinroq tugatilsa, tinglovchilar zerikmaydi. O‘qituvchining o‘z nutqiga munosabati ham muhimdir, chunki, shunday bo‘lgandagina quruq rasmiyatchilikdan qochish bo‘ladi. O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi aloqa yaxshi bo‘ladi.

*O‘qituvchi nutqida terminlarni qo‘llashda ham aniqlikning buzilish holatlari kuzatilish holatlari:*

Mantiqiylik aniqlik bilan chambarchas bog‘liq bo‘lganligi sababli mantiqqa zidlik bir-biridan mutlaqo farq qiluvchi turli tushunchalarni solishtirish yoki bir-biriga qarama-qarshi qo‘yishda namoyon bo‘ladi. Masalan:

**Bir gapni shaklan o‘zgartirgan holda takrorlash.** Masalan: “Bugun Iroq maktablaridan birida portlash sodir etildi. Mazkur portlash yuzasidan surishtiruv ishlari olib borilmoqda. Portlash bilan bogliq hujjatlar tekshirilmoqdi” Bu misolda yuqoridagi gap mazmuni so‘nggi gapda takrorlanganligi uchun mantiqsizlik kelib chiqqan.

**Ifodalilik ekspressivlikni ta’minlovchi vositalar orqali yuzaga chiqadi.** Ta’sirchanlikni ta’minlovchi til birliklaridan obrazlilik, ifodalilikni ta’minalashda o‘rini bilan foydalanish lozim. Aks holda balandparvozlik, sun’iylik yuz beradi, o‘quvchining g‘ashiga tegadi. Ekspressivlik, avvalo, umumiy neytral birliklar bilan birga fikrni ajratib, obrazli ifodalash uchun xizmat qilishi lozim. Masalan: “Ko‘rsatuvlarga turli yosh va jinsdagi, turli mutaxassliklar bo‘yicha tibbiyat xodimlari taklif etiladi. Ularning kasbiy malakasi, ko‘plarining ravon nutqi e’tiborni tortadi. Lekin tildan foydalanishda to‘liqsiz gap tuzishlar, inversiyadan noo‘rin foydalanish, shevaga xos talaffuzlar uchraydi. Masalan: *azgina, etganimizdek, bolalari-miza, bizaga, qon olamiza, sho’tta, kottalashib, bemor manga, ula manga, man, biza, birinchi maslahatimiza, taklif qiganla, bo’tta, dori-darmonla buyuura-miza, man yuqorida aytganimday davolaymiza, hurmatli onalarimiza, ishlavotganini, aytovuza, manbu, yuqorida etib o’ttim* kabilar. Aynan ona tili o‘qituvchisining

nutqida bunday so‘zlarning bo‘lishi dars jarayoni pedagogik qoidalarga zid ravishda olib borilgan bo‘ladi

Nutq madaniyatiga e’tiborsizlikka oid namunalar: *Har kim inson yengil pul topaman deb hisoblaydi. Nima deydi? Qanaqadir... A-a, a-a, natijalar-ning natijasi hisoblanadi, ishongan inson yetolmiydi, kep qoladi, er-turmush o‘rtog‘i azgina, turmush o‘rtog‘ini kech kelishi bor, bola-chaqalar tarbiyasi – bolalar tarbiyasini, yaxshi hayotga yashash, erkaklarimizani, qo‘ni-qo‘snila, hali bizani ko‘p farzandlarimiz bo‘ladi, mag‘lubiyatlar asqotadi, xato qillikmi, bo‘lli, o‘qib ketvotti, yoki bo‘masam, ulani, qiladigon, foyda keltiradigon, ilmdi kabilar.*

### III bob. Tajriba – sinov materiallari

#### 3.1. Tajriba sinov materiallari

**Mavzu:** Nutqning to‘g‘riliqi aniqligi mantiqiy izchilligi sofligi ta` sirchanligi va o‘qituvchi nutqida bularga rioya qilish amali

#### O‘QUV MASHG‘ULOTINI O‘QITISH TEXNOLOGIYASI MODELI.

<b>Vaqt:</b> 80 daqqa	<b>O‘quvchilar soni:</b> 30 nafar
<b>O‘quv mashg`ulotining shakli va turi:</b>	<b>Nazariy:</b> kombinatsiyalashgan o‘quv mashg`uloti
<b>O‘quv mashg`uloti rejasi:</b>	1 .Nutqning to‘g‘riliqi. 2.Nutqning aniqligi . 3.Nutqning mantiqiyligi. 4, O‘qituvchi nutqiga qo‘yiladigan talablar
<b>O‘quv mashg`uloti taqsimoti:</b> Nutqning to‘g‘riliqi aniqligi mantiqiy izchilligi sofligi ta` sirchanligi va nutqda bularga rioya qilish amali mavzusi bo‘yicha bilimlarni shakllantirish	
<b>Pedagogik vazifalar:</b> <ul style="list-style-type: none"><li>❖ Nutqning to‘g‘riliqi haqida tushuncha berish;</li><li>❖ Nutqning aniqligi haqida ma`lumot berish ;</li><li>❖ Nutqning mantiqiyligini ;</li><li>❖ yoritib berish;</li><li>❖ O‘qituvchi nutiga misollar keltirish;</li><li>❖ O‘qituvchi nutqiga qo‘yiladigan talablarni tushuntirib berish;</li></ul>	<b>O‘quv faoliyatining natijalari:</b> <ul style="list-style-type: none"><li>❖ Nutqning to‘g‘rilibini aytib beradi;</li><li>❖ Nutqning aniqligini misollar asosida aytib beradi;</li><li>❖ Nutqning mantiqiyligini gapirib beradi.</li><li>❖ Tinglatydi, mashq qiladi;</li></ul>
<b>O‘qitish usullari:</b>	Kichik axborotli ma’ruza, tushuntirish, ko‘rsatma berish.
<b>O‘quv faoliyatini tashkil etish:</b>	Ommaviy, jamoaviy, individual
<b>O‘qitish vositalari:</b>	Matnlar, yozuv taxtasi, slaydlar, proektor, kompyuter, klaster
<b>O‘qitish sharoiti:</b>	Texnik vositalar bilan jihozlangan, guruhlarda ishlashga mo‘ljallangan xona

*Qayta aloqaning usul va vositalari:*

Tezkor-so‘rov,og`zaki so`rov,kuzatuv  
bajarilgan o‘quv topshiriplarni baholash.

## O‘QUV MASHG‘ULOTINING TEXNOLOGIK XARITASI.

Ish bosqichlari va vaqtি	Faoliyat mazmuni	
	O‘qituvchi	O‘quvchi
<b>1-bosqich Mashg‘ulot ga kirish (5 daqiqa)</b>	<p><b>Tashkiliy qism:</b>            1.1.O‘quvchilarni mashg‘ulotga tayyorgarligi va davomatini tekshiradi.</p> <p><b>Maqsad va vazifani belgilanishi.</b>            1.2.Nutqning to‘g‘riligi ,aniqligi,mantiqiy izchilligi,sofliги vat ta’sirchanligi va nutqda bularga rioya qilish amali mavzusi maqsadi va kutilayotgan natijalarni yetkazadi(1-ilova) Mavzuning o‘zaro aloqasini yoritadi,ularga qisqa ta’rif beradi,fan bo‘yicha bajariladigan mashq va matnlar xususiyatlarini tushuntiradi.</p> <p>1.3.Mavzu bo‘yicha asosiy tushunchalarni,baholash mezonlari,mustaqil ishlash uchun adabiyotlar ro‘yxatini aytadi.</p>	Mashg‘ulotga tayyorlanadilar. Tinglaydilar va daftarlariiga yozib oladilar. Aniqlashtirilgan savollar beradilar.
<b>2-bosqich. Asosiy (65 daq)</b>	<p><b>O‘quvchilar bilimlarni faollashтирish:</b></p> <p><b>1.1.</b>Har bir o‘quvchidan ona tilimizning bizning hayotimiz uchun katta ahamiyatga ega ekanligini tushuntirib 1-kurnda o‘tilgan ona tili fani bo‘yicha og‘zaki savollar beradi(2-ilova)</p> <p><b>1.2.</b>Og‘zaki so‘rovda sust qatnashgan o‘quvchilarni bilimlarni individual so‘rov savollari orqali aniqlaydi.(3-ilova)Javobsiz qolgan savollarga javob beradi. Mavzu tushuntirilib “Aqliy hujum” orqali va “Klaster” metodlari orqali mustahkamlanadi</p> <p><b>Yangi o‘quv materili bayoni;</b></p> <p>2.3 Slaydlar sharhlash yo‘li bilan mavzu bo‘yicha asosiy nazariy bilimlarni bayon qiladi(3-ilova)</p> <p>2.4.Jalb qiluvchi savollar beradi.</p> <p>2.5.Mavzuning har bir qismi bo‘yicha xulosalar qiladi,eng asosiylariga e‘tibor qaratadi,berilayotgan ma‘lumotlarni daftarga qayd qilishlarini eslatadi.</p> <p>2.6.Nutqning to‘g‘riligi,aniqligi mantiqiyligi izchilligi sofliги, ta’sirchanligi va nutqda bularga rioya qilish amali o‘qituvchi nutq madaniyati uchun zarurligini tushuntiradi.</p> <p><b>Yangi o‘quv materialini mustahkamlash:</b></p> <p>2.7. Mustahkamlash uchun blits usuli orqali savollar beradi (4-ilova)</p> <p>2.8.Javob bergen oquvchilar javobi tinglanadi va to‘liq bo‘limgan javoblarga boshqa o‘quvchilar ham javob berib to‘ldiradi.</p>	Diqqat qiladilar.  Savollarga javob beradilar.  Klasterni to‘ldiradilar.  Diqqat qiladilar  Ma’lumotlarni daftarga qayd qiladilar.  Savollarga javob beradilar
<b>3-bosqich. Yakuniy (10 daq.)</b>	<p><b>Mashg‘ulot yakuni:</b></p> <p>3.1.Mavzu bo‘yicha yakun qiladi,o‘rganilgan mavzu kelgusida kasbiy faoliyatlarida muhim ekanligiga o‘quvchilar e‘tiborini qaratadi</p> <p>3.2.O‘quvchilar faoliyatini va belgilangan o‘quv maqsadlariga erishganlik darajasini tahlil qiladi va banolaydi.</p> <p><b>Uyga vazifani berilishi:</b></p> <p>2. Uyga vazifa va uni bajarish yuzasidan yo‘riqnomalar beradi</p>	1. Baholash bilan tanishadilar.  2. Topshiriqn yozib oladilar

	(6-ilova).	
--	------------	--

## 1-Illova.

### Dars rejasi

- 1.Nutqning to‘g‘riliqi
- 2.Nutqning aniqligi
- 3.Nutqning mantiqiyligi
4. O‘qituvchi nutqiga qo‘yiladigan talablar
5. O‘qituvchi nutq texnikasini egallash yo‘llari

### Adabiyotlar ro‘yxati

- 1.Begmatov E, O‘zbek nutq madaniyati masalalari// O‘zbek tili va adabiyoti, 1980, 4-son
2. Qung‘urov R., Karimov S. A. Qurbonov T.I. O‘zbek tili funksional stillari. Sam. SamDU nashri 1984.
3. Qung‘urov R., Karimov S. A. Qurbonov T.I. Nutq madaniyati asoslari. Sam. SamDU nashri 1986
4. Shomaqsudov A. O‘zbek tili stilistikasi. T. O‘qituvchi 1983
  1. [www.uzpak.uz](http://www.uzpak.uz)
  2. [www.freenet.uz](http://www.freenet.uz)
  3. [www.uznet.uz](http://www.uznet.uz)

## Baholar ko'rsatkichlari va mezonlari

Ko'rsatkichlar	Baholar			
	5	4	3	2
Mavzu bo'yicha bilimlarni rivojlantirish:	Mavzu bo'yicha ma'lumotlarni to'liq bayon qiladi	Mavzu bo'yicha ma'lumotlarni noto'liq bayon qiladi	Mavzu bo'yicha ma'lumotlarni qisman bayon qiladi	Mavzu bo'yicha ma'lumotlarni umuman bayon qilmaydi

4-5 балл "5" baho 2-3 ball "4" baho 1-2 ball "3" baho

O'qituvchi pedagogik faoliyatida uning nutqi texnikaning ko'nikma va malakalarini mukammal takomillashtirgan holda o'z mahoratini oshirish uchun quyidagi jarayonlarni bilishi lozim:

1. O'qituvchi o'zlashtirishi lozim bo'lgan pedagogik texnikaning muhim tar-kibiy qismlaridan biri uning nutq texnikasidir. (Nutq tempi, diksiyasi, tovush ohangini baland, o'rta, past qila olishi va hokazo).

Dars jarayonida o'quv materiallarini idrok qilishda o'qituvchining nutqi muhim rol o'ynaydi. Olimlarning fikricha, o'quvchilar tomonidan 1/2 foiz o'quv materialini tafakkur orqali idrok qilish va o'zlashtirish o'qituvchining nutqiga va uning so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishiga bog'liq. O'quvchilar o'qituvchining nutqini nihoyatda kuzatuvchanlik bilan tinglaydilar. Past ohangda gapiradigan o'qituvchining darsi esa, o'quvchilar uchun zerikarli bo'ladi, nihoyatda baland gapirish, oddiy suhbat chog'ida ovozni baland qilib so'zlashish o'quvchilarni bezdiradi va charchatadi. O'quvchilarning bunday o'qituvchi ta'limidan ko'ngillari soviydi. Shuning uchun o'qituvchi savodli gapirishi, o'z nutqini chiroyli va tushu-

narli, ta'sirchan qilib bayon qilishi, o'z fikr va his-tuyg'ularini so'zda aniq ifodalash malakalariga ega bo'lishi lozim.

Chiroyli, savodli, ta'sirchan gapiruvchi o'qituvchilarining fikrlari o'quvchilar ongiga tez etib boradi, o'quv materiallarini o'zlashtirib olishiga katta imkoniyat yaratadi, o'quvchilar bunday o'qituvchilarining darslarini toqatsizlik bilan kutadilar. O'qituvchilar o'z nutqlari ustida tinimsiz ishlashlari, so'zlarning chiroyli, ma'noli, ta'sirchan bo'lishi ustida mashq qilishlari, ovoz diapozonlari kuchi, nutq tembrining harakatchanligi, diksiyasini doimo mashq qilib borishlari lozim.

Ovoz diapozoni chegarasi baland yoki past gapirish toni bilan belgilanadi. Diapozonning qisqarishi tovushning past tonligiga olib keladi. Past ohangda so'zlashish o'qituvchining idrokini bo'shashtiradi va susaytiradi.

O'qituvchi tovush diapozonini, uning tembri bilan bog'lab ishlatsa, gaplari chiroyli, mayin, jozibali chiqib, talabalarni o'ziga jalb etadi va o'quv materiallari mazmuni yanada yaxshi idrok qilinadi.

O'qituvchining ovozida so'zlarni aniq, to'g'ri, tiniq eshitilarli va tushunarli bayon qilishida namoyon bo'ladi. To'g'ri va mukammal ovoz diksiyasiga ega bo'lgan o'qituvchi so'zlarni ifodali bayon qiladi. Ifodali gapirishda til, lab, kichik tilcha, pastki jag' ishtirok etadi. O'qituvchi ifodali gapirishi, so'zlarni talaffuz qilishi uchun yuqoridagi organlarni doimo mashq qildirishi lozim. Shunday qilib, pedagogik texnikada nutq malakalari muhim ahamiyat kashf etar ekan, o'qituvchi doimo gapirish tempi, ritmi, diksiyasi, ovoz kuchi, diapozoni, harakatchanligi ustida mashq qilishi zarur, ushbu jarayon alohida bir faslda ko'rib chiqiladi.

Nutqiy texnika malakalarini mukammal egallash uchun avvalo, o'qituvchi o'z fanini, o'qitadigan predmetining boshqa fanlar bilan o'zaro aloqadorlikda bilishi, pedagogik va axborot texnologiyalarini, pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini davr taraqqiyoti darajasida bilishi, kasbiy jihatdan o'z-o'zini tarbiyalay oladigan bo'lishi zarur. Chunki nutqiy texnika o'qituvchining individual shaxsiy xususiyatlariga ham bog'liq. Har bir o'qituvchi o'z tafakkuriga, fikrlash qobiliyatiga, o'zining kasbiy yo'nalishi, kasbiy laboratoriyasiga ega bo'lishi kerak. Bu yo'nalish va laboratoriyanı o'qituvchining o'zi mustaqil fikr yuritish, mustaqil

bilim olish, pedagogik mahoratini oshirib borish orqali qo‘lga kiritadi va mohir o‘qituvchiga xos fazilatlarni tarbiyalaydi hamda kasbiy ideal sari harakat qiladi.

Nutqiy texnika sirlarini mukammal bilish o‘qituvchining tashkiliy - metodik malakalarni egallahiga ham bog‘liq. Bu malakalar zarur bilimlar bo‘yicha ma’ruzalarni tinglash, maxsus adabiyotlarni o‘qish orqali qo‘lga kiritiladi. Tashkiliy-metodik malakalar aytilgan yo‘l-yo‘riqlar, ko‘rsatmalarni o‘zining individual kasbiy tajribasida sinab, ko‘nikma hosil qilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Tashkiliy-metodik malakalarning individual xususiyatlari, jamoa va guruh bo‘lib ishslash, o‘qish, faoliyat ko‘rsatish asosida qurilgani ma’qul. Chunki guruh yoki jamoa bo‘lib o‘qish, ishslash har bir o‘qituvchiga refleksiv qobiliyatları asosida, o‘zini boshqalar ko‘zi bilan ko‘rishni va baho berishni, faoliyatidagi nuqsonlarni sezalishni, muomala va xulq-atvorning yangi shakllarini izlab topish va sinash imkoniyatini beradi. Bu esa o‘z-o‘zini bilish, o‘z-o‘zini tarbiyalash uchun asos bo‘ladi va pedagogik vazifalarning yangi usullarini tekshirib ko‘rish, nazariy masalalarini hal qilish uchun tajriba maydonini tashkil qilishga zamin yaratadi. Demak, tashkiliy - metodik malakalarni egallahda guruh, jamoa faoliyati, mashg‘ulotlar pedagogik texnika asoslarini egallah imkoniyatini beradi.

Nutqiy texnikani bir maromda egallahda, har bir o‘qituvchining o‘z individual dasturini ishlab chiqishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday dasturni tuzishdan oldin o‘qituvchi o‘zida pedagogik texnika malakalarini shakllanganligining boshlang‘ich darajasini aniqlab olish zarur. Ya’ni, o‘qituvchining dastlabki o‘quv-tarbiya ishlaridagi natijalarida, nutq madaniyatining to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri qo‘yilishida, harakatidagi mimik va pantomimik holatlarda ro‘y beradigan nuqsonlar e’tirof etiladi. Bunda natija yaxshi bo‘lsa, kelajakda pedagogik texnikani egalash ancha oson bo‘ladi.

Ushbu faoliyat natijasida ko‘nikma va malakalar yanada rivojlantiriladi. Individual dastur pedagogik texnika malakalarining etishmaydigan jihatlarini to‘ldirish uchun xizmat qiladi. Bu dastur ma’lum mashqlar yoki mashqlar majmuuni o‘z ichiga oladi.

Shuni ham unutmaslik lozimki, nutq texnikasini namoyish etishda o‘qituvchining umumiyl madaniyati, ma’naviy va estetik dunyoqarashi muhim o‘rin tutadi. Agar o‘qituvchining tashqi ko‘rinishi qashshoq, so‘zlarni talaffuz qilish qobiliyati past, estetik jihatdan omi, bo‘lar bo‘lmas voqealarga nisbatan o‘z hissiyotiga erk beradigan bo‘lsa, tarbiyalanuvchilarning e’tiqodiga, aql-idrokiga, bilish va anglash tafakkuriga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Demak, o‘qituvchi o‘zidagi ana shu nuqsonlarni qayta tarbiyalashi lozim.

Ta’kidlash joizki, nutq texnikasini ko‘nikma va malakalarini egallah yo‘llari to‘g‘risida bildirilgan fikrlarga e’tibor bermaslik, pedagogik faoliyat jarayonida ularning beqiyos ahamiyatiga etarlicha baho bermaslik, shuningdek, pedagogik texnika malakalarini tanqidiy, har bir o‘qituvchining individual xususiyatlarini hisobga olmay ish yuritish pedagogik mahoratni egallahsga salbiy ta’sir ko‘rsatadi va o‘quv-tarbiya jarayonida o‘qituvchining ta’lim-tarbiyaviy faoliyatida nuqsonlarning ko‘payishiga olib keladi.

Nutq texnikasini egallahning asosiy yo‘llari o‘qituvchining malaka oshirish kurslariga ishtiroki, ustoz murabbiylar rahbarligidagi mashg‘ulotlar (ulardan pedagogik texnika sirlarini o‘rganish) va mustaqil (kasbiy jihatdan o‘z-o‘zini tarbiyalash) ishslashdir. Pedagogik texnika ko‘nikma va malakalarini egallah individual-shaxsiy salohiyat ekanligini hisobga olib, pedagogik texnikani egallahda va uni takomillashtirishda kasbiy jihatdan o‘z-o‘zini tarbiyalash, ya’ni talabalik yillarida o‘zida mohir o‘qituvchining shaxsiy fazilatlarini va kasbiy malakalarini shakllantirishga qaratilgan faoliyat etakchi rol o‘ynaydi, deb aytish mumkin. Kasbiy ideal sari intilishda bu harakat pedagogik texnikani egallahda muhim rol o‘ynaydi.

Tashkiliy-metodik jihatdan nutq texnikasi mashg‘ulotlari individual, guruh yoki ketma-ketlikda o‘tkaziladi. Masalan, zarur bilimlar ma’ruzalarda yoki tegishli adabiyotlarni mustaqil o‘qish asosida, integratsion bilimlarni egallah, portal, kompyuter texnologiyalari yordamida egallanishi mumkin. Avtomatlashtirishga doir ayrim oddiy harakatlar (turli artikulyasiya, fonatsion nafas olish usullari, relaksatsiya usullari va shu kabilalar) o‘qituvchi tomonidan muntazam mashg‘ulotlar

asosida egallanadi. Tegishli ko‘nikmalarni ishlab chiqish, individual ishlashni dastlab o‘qituvchining nazorati va rahbarligida, keyin esa mustaqil ishlash talab qiladi.

Barcha hollarda ham individual, ham guruhiy mashg‘ulotlar boshlanishidan oldin pedagogik texnikani egallahshning individual dasturi tuzib chiqilishi lozim. Bunday dasturni tuzish uchun avvalo pedagogik texnika malakalari shakllanishining boshlang‘ich darajasini aniqlab olish zarur. Biroq, tajribalarning ko‘rsatishcha, odatda, mazkur bosqichda faqat malakalar haqidagina emas, shu bilan birga dastlab avtomatlashtirilgan (ta’limni boshlash vaqtiga kelib) ko‘nikmalar haqida ham mulohazalar olib borish mumkin. Masalan, nafas olish va ovozning tabiiy yo‘lga qo‘yilishi, to‘g‘ri talaffuz, bundan oldingi tarbiyaning natijasi bo‘lgan savodli, ifodali nutq, mimik va pantomimik aniqlik va boshqalar bo‘lishi mumkin. Bunday ko‘nikmalarning mavjudligi pedagogik texnika malakalarini shakllantirishni ancha osonlashtiradi. Shunga qaramasdan barcha hollarda ana shu ko‘nikmalarni tegishli malakalar tarkibiga kiritish yuzasidan muayyan faoliyat olib borilishi zarur. Pedagogik texnika malakalarini shakllantirishning boshlang‘ich darajasiga qarab uni egallahshning individual dasturi etishmaydigan malakalarni shakllantirishga qaratilgan ayrim mashqlarni yoki ularning to‘liq majmuasini ishlab chiqish lozim.

### “Aqliy hujum”

1. Notiqlik san’atining paydo bo‘lishi tarixi?
2. Sharq mutafakkirlarining notiqlik san’ati haqidagi fikrlari?
3. Nutq teknikasida nutqning asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?
4. Nutqning to‘g‘riliqi va ravonligi, aniqligi va ta’sirchanligiga ta’rif bering?
5. Nutqning mantiqiyligi deganda nimani tushunasiz?
6. Til va nutq bir–biridan qanday farqlanadi: ularning qiyosiylarini tahlili?
7. O‘qituvchi nutqiy faoliyatining komponentlari nima, ularni izohlang?
8. O‘qituvchining nutq madaniyatini rivojlantirish vositalari?
9. Nutqning ta’sirchanligi va ifodaliligi qanday namoyon bo‘ladi ta’riflab bering?
10. Tajribali o‘qituvchi nutqida namoyon bo‘luvchi xislatlar?
11. O‘qituvchi nutqining funksiyalarini izohlab bering?
12. Bo‘lajak o‘qituvchi nutqiy faoliyatini qanday takomillashtirishi mumkin?

## **2-ilova**

### **“Zinama – zina”metodi**


- 1.Til qanday vosita?**
- 2.Nutq tovushlari qaysi bo‘limda o‘rganiladi?**
- 3.O‘zbek tilida nechta tinish belgisi bor?**
- 4.Tinish belgilari qanday sabablarga ko‘ra qo‘llaniladi?**
- 5.Gapning asosiy belgilarini ko‘rsatuvchi eng muhim bo‘lak qaysi?**
- 6.Gapning gramatik asoslari nimalar?**
- 7.Bosh bo‘lakarga qaysilar kirdi?**
- 8.Ikkinch darajali bo‘laklargachi?**
- 9.Mustaqil so‘z turkumlari qaysilar?**
- 10.Yordamchi so‘z turkumlarichi?**

## **3-Illova.**

### **Individul savollar**

- 1.Nutq necha xil yo‘l bilan amalga oshiriladi?**
- 2.Hozirgi o‘zbek adabiy tilida necha unli konema mavjud?**
- 3. “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi qonun qachon qabul qilingan?**
- 4.To‘g‘ri talaffuz meyorlarini o‘rganuvchi tilshinoslik bo‘limi qaysi?**
- 5.Tildagi so‘zlar va qo‘shimchalar malum qoidalar asosida yoziladi.Bu qoidalar yig‘indisi nima deyiladi?**

# Tarmoqlash



**“Zukko” metodi**

**Mavzuni mustahkamlash uchun savol:**

**1.Quyidagi gapdan noto'g'ri qo'llangan grammatik vositani toping va uni ma'quli bilan almashtiring:**

*Ana shu azamatlarning  
g'ayrat-himmatlari tufayli  
kanalda hozirgachayoq 300  
ming kubometrga yaqin  
tuproq ishlari bajarib qo'yildi.  
Biz govmishlarni sershira  
yemishlar bilan boqib, ularni  
qishdan betalofatsiz olib*

**2.Quyidagi gap mantiqi buzilgan holatni aniqlang va uni tahrir qiling:**

*Darslardan uzrsiz  
sabablar bilan qoluvchi yoki  
uy vazifasini bajarmaydigan  
o'quvchilar butunlay  
tugatiladi. Uxlashdan oldin  
uch soat ovqatlanish kerak.*

**Pantomimik harakatlarda o‘z hissiy holatini nazorat qilishda o‘qituvchi quyidagi faoliyatlarga jiddiy e’tibor berishi maqsadga muvofiqdir:**

- sport bilan muntazam shug‘ullanib borish;
- yoshlar psixologiyasiga oid bilimlarni doimiy o‘rganib borishi;
- o‘quvchilarga nisbatan xayrixohlik va optimizmga ega bo‘lishi;
- o‘z harakatini nazorat qilishi (muskul zo‘riqishini, qo‘l, oyoq va bosh harakatini, nutq tempini bir maromda saqlashda nafas olishini tartibga solish);
- madaniy hordiqni to‘g‘ri uyushtirishi (dam olishi, o‘z sog‘ligiga doimiy e’tibor, lirika, musiqa, humoristik hajviyalarni sevib o‘qiy olish);
- o‘z-o‘ziga tanqidiy munosabatda bo‘lib, ta’sir ko‘rsata olish.

## 6-Ilva.

### **Uyga vazifa uchun berilgan savollar:**

1. «Nutqning to‘g‘riligi» deganda nimani tushunasiz?
2. Nutq aniqligi talablarini tushuntirib bering.
3. Nutqning mantiqiyligi tildan boshqa yana nimalarga bog‘liq?
4. O‘qituvchi nutqiga qo‘yiladigan talablarni izohlang
5. O‘zbek tilining tozalik darajasini izohlang.
6. Tilning ta’sirchan vositalarini badiiy adabiyot matnidan olingan misollar asosida ko‘rsating.
7. Pantomimik harakatlarda o‘z hissiy holatini nazorat qilishda o‘qituvchi quyidagi faoliyatlarga jiddiy e’tibor berishi maqsadga muvofiqdir

### **3.2. Tajriba – sinov ishlaringin natijalari**

Tajriba sinov ishlari 1- Toshkent pedagogika kollejida olib borildi. Kollejda bo‘lg‘usi pedagog kadrlarning nutqi masalasiga alohida e’tibor berilar ekan. Shu maqsadda ularga “O‘qituvchi nutqi madaniyati”, “Pedagogik mahorat” kabi fanlar o’tilar ekan.

Biz tajriba sinov ishlarimizni o‘tkazishdan avval guruh o‘quvchilarini ogohlantirdik va yangi mavzuga tayyorlanib kelishlarini aytdik. Dars mavzusiga biroz o’zgartirish kiritish bo‘yicha kollejning o‘quv ishlari bo‘yicha direktor mouvinidan ruxsat oldik va ochiq darsimiz hujjatlarini rasmiylashtirdik.

Darsni kun hikmati bilan boshladik, o‘tilgan mavzu va uyga vazifa so‘raladi. Yangi mavzu slaydlar orqali va audio, video materiallar orqali tushuntirildi.

U o‘quvchilarni darsga bo‘lgan qiziqishlarini yanada orttirdi. Tushuntirish jarayonida “Tarmoqlash” usulidan foydalandik, bundan tashqari, mavzuni mustahkamlash va o‘quvchilar bilimi tekshirish maqsadida, “Blits- so‘rov”, “Zinama-zina”, “Pantomimo”, va “Zukko” metodlaridan foydalandik.

Pedagog va psixolog olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, o‘z faoliyatini endigina boshlayotgan o‘qituvchilar duch keladigan qiyinchiliklarning asosiysi aynan pedagogik texnikaga oid ma’lumotlarni bilmasligi oqibatida sodir bo‘lmoqda. Pedagogik texnika to‘g‘risida yuqorida aytib o‘tilgan fikr va mulohazalarga e’tibor qilmaslik, pedagogik faoliyatda nazariy va amaliy tajribalarning yo‘qligi, o‘z faoliyatiga tanqidiy nazar bilan baho berolmaslik oqibatida hamda o‘qituvchida individual pedagogik texnikani rivojlantirish, tahlil qilish va uni takomillashtirish yuzasidan aniq maqsadga qaratilgan pedagogik faoliyatning yo‘qligi mazkur qiyinchiliklarning asosiy sabablaridan biri ekanligini unutmaslik kerak.

Pedagogika oliy ta’lim muassasalaridagi kasbiy tayyorgarlik jarayonida pedagogik texnikani egallash bo‘lajak o‘qituvchiga o‘zining kasbiy yo‘nalishining boshlanishidayoq ko‘pgina xatolardan holi bo‘lishda, talabalarga ta’lim-tarbiya berishning yuksak samaradorligiga erishishda yordam beradi.

Mukammal pantomimik malakalarga ega bo‘lgan o‘qituvchi o‘z-o‘zini nazorat qila oladi, ko‘p yillik faoliyati davomida sog‘lom asab tizimini o‘zida tarbiyalab asabiylashishdan, hissiy va aqliy zo‘riqishlardan o‘zini saqlaydi.

## **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olajanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
2. Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. -Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 2017-yil 7-fevraldagagi farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari” to‘g‘risidagi qarori. – “Xalq so‘zi” gazetasi, 2017-yil, 21-aprel.
5. Imamova T., Tuxvatullina L. Ish qog‘ozlari qanday yoziladi? - Toshkent, 1992.
6. Tojiyev Y., Hasanova N., Tojimatov, Yo‘ldosheva O. O‘zbek nutqi madaniyati va uslubiyat asoslari. - Toshkent, 2001.
7. Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N. Ish yuritish. -T.: Qomus, 2007.
8. Абдурахмонов X., Рафиев А., Шодмонқулов Д. Ўзбек тилининг амалий грамматикаси. -Т.:, Ўқитувчи, 1992.
9. Karimova V. M. , Sunnatova R. I., Tojiboyeva R. Mustaqil fikrlash. –T.: Fan, 2000.
10. Qilichev E. O‘zbek tilining amaliy stilistikasi. -T.:, O‘qituvchi, 2001.
11. Qo‘ng‘urov R., Begmatov E., Tojiyev Yo. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. -T.:, O‘qituvchi, 2000.
12. Begmatov E. va b. O‘zbek nutqi madaniyati ocherklari. –T.:, Fan, 2008.
13. Bekmirzayev N. Notiqlik asoslari. –T.: Fan, 2008
14. Mahmudov N. O‘qituvchining nutq madaniyati –T.:, O‘qituvchi, 2009.
15. Saidov U. Notiqlik san’ati –T.: O‘qituvchi, 2007.

16. Salimov G. Tarjima nazariyasi asoslari. –T.:, O‘qituvchi, 2003.
17. Qilichev E. O‘zbek tilining praktik stilistikasi. –T.:, O‘qituvchi, 2000
18. Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N. Ish yuritish. – Toshkent, 2000.
19. Mahmudov N. va boshq. Ish yuritish asoslari. –Toshkent: O‘zME davlat ilmiy nashriyoti, 2006.
20. Mahmudov N., Rafiyev A., Yo‘ldoshev I. Davlat tilida ish yuritish. - Toshkent, 2015.
21. Xoliqov A. A. Pedagogik mahorat. Darslik. –Toshkent, Tafakkur bo‘stoni, 2012.
22. To‘xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyadova T. –O‘zbek tili o‘qitish metodikasi.-T, 2006. – Б.

## **INTERNET SAYTLARI**

1. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
2. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
3. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)
4. [www.teachers.com](http://www.teachers.com)
5. [www.sciences.com](http://www.sciences.com)
6. [www.coursera.com](http://www.coursera.com)
7. [www.uzpak.uz](http://www.uzpak.uz)